

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VA‘ZIRLIGI TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI TABIIY FANLAR**

FAKULTETI GEOGRAFIYA KAFEDRASI

MAMARAJABOV CHORI SAFAR O‘G‘LI

**5140600- GEOGRAFIYA TA‘LIM YO‘NALISHI BO‘YICHA
BAKALAVR DARAJASINI OLIH UCHUN**

**“MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATINING
IQTISODIY-GEOGRAFIK TAVSIFI” MAVZUSIDA**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



ILMIY RAHBAR:

A. CHORIYEV

TERMIZ-2018

Mundarija

Kirish

1. Qashqadaryo viloyati geografik o'ri, va tabiiy resurslari.
2. Qashqadaryo viloyatining aholisi va mehnat resurslari.
3. Qashqadaryo viloyat iqtisodiyotining umumiy ta'rifi.
 - a. Sanoatining tarmoqlar tarkibi.
 - b. Qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlar tarkibi.
 - v. Ijtimoiy sohalarning ustuvor yo'nalishlari.
 - g. Transport va tashqi iqtisodiy aloqalari.
 - d. Viloyat iqtisodiyotining hududiy tarkibi va asosiy muammolar.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.

Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat hisoblanib, 1924-yil 1-noyabrda tashkil etilgan, 1927-yil 17- fevraldan 1938-yil 15- yanvargacha Qashqadaryo okrugi maqomida bo'lgan, 1938-yil 15- yanvarda Buxoro viloyatiga qo'shib yuborildi. 1943- yil 20- yanvarda qayta tashkil etildi. 1960- yil 20- yanvarda Surxondaryo viloyatiga qo'shildi. 1964- yil 7-fevraldan yangidan tashkil etildi. Respublikaning janubiy-g'arbida, Qashqadaryo havzasida, Pomir-oloy tog' tizmasining g'arbiy chekkasida, Amudaryo va Zarafshon tizma tog'lari orasida, shimoli-g'arbdan Buxoro, janubi-sharqdan Surxondaryo, janubi-g'arb va g'arbdan Turkmaniston, sharqdan Tojikiston va Samarqand viloyatlari bilan chegaradosh. Viloyat maydoni 28,6ming kv. km bo'lib, mamlakat hududining 6,4 foizini egallaydi. Bu borada Qashqadaryo Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy va Buxoro viloyatlaridan so'ng 4-o'rinda turadi. 2017-yilning 1-aprel holatida viloyatda doimiy aholi soni 3100,2 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 11358 kishiga yoki 1,3 foizga ko'paydi.

2700 yildan ziyod tarixga, qadimiy madaniyat va sivilizatsiya durdonalariga ega bo'lgan Qashqadaryo zamini bizga yaratganning marhamati bilan ato etilgan bebaho va buyuk zamindir.

Sh. Mirziyoyev

O'zining demografik sig'imi yoki salohiyati bo'yicha O'zbekiston mintaqalari bo'yicha Samarqand, Farg'ona viloyatlaridan keying 3-pog'anani egallaydi. Vohalanki u bundan 8-10 yil muqaddam 5-o'rinda edi. Bundan ko'rinadiki, Qashqadaryoda aholi soni tez o'sib keying yillarda poytaxt Toshkent va Andijon viloyatlaridan o'tib ketgan.

Keng ko'lamli islohatlar samarasida mamlakatimizning barcha hududlari qatori Qashqadaryo viloyati ham izchil taraqqiy etmoqda. Qashqadaryo mamlakatimizni eng yetakchi viloyatlaridan sanaladi. Yalpi hududiy mahsulotda sanoatning ulushi 38% tashkil etgani ham shundan dalolat beradi. Xozirgi kunda O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotining 9,5 foizi aynan shu viloyatga to'g'ri kelmoqda. G'allaning 13 foizdan ortig'i, paxtaning 14 foizdan ziyodi viloyat xissasiga to'g'ri kelmoqda. Keyingi besh yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi 2 barobar oshdi.

Viloyatda so'ngi besh yilda barcha manbalar hisobidan 18 trillion 100 milliard so'mlik capital qo'yilmalar o'zlashtirildi. Shuning 27 foizi yoki 4 trillion 900 milliard so'm xorijiy investitsiyalar ekani ayniqsa e'tiborlidir.

O'zbekiston Respublikasi mehnat taqsimotida Qashqadaryo yetakchi mavqelardan birida turadi. 2013-yil yakunlariga qaraganda, bu yerga mamlakat yalpi ichki mahsulotining 7,4, sanoat ishlab chiqarishning-9,5 qishloq xo'jalik mahsulotining 8,5, kapital qo'yilmalarning-10,0, qurulish hajmining 7,9 foizi to'g'ri keladi. Yalpi ichki mahsulot ulushiga ko'ra viloyat- 3, sanoatda- 5, qishloq xo'jaligida -6 o'rinda turadi (taqqoslash uchun:2000-yilda viloyat respublikaning 6,4% yalpi ichki mahsuloti, 8,3% sanoat, 7,2% qishloq xo'jalik mahsulotini bergan). Agar bu nisbat ko'rsatkichlari uning demografik salohiyatiga taqqoslab qaralsa, mintaqaning milliy iqtisodiyot shakillanishi va rivojlanishidagi o'rni yaqqol nomoyon bo'ladi.

Qashqadaryo viloyati ma'muriy-hududiy tuzulishida 13 ta qishloq tumanlari (Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, Qarshi, G'uzor), 12 ta shahar (Beshkent, Kitob, Koson, Muborak, Tallimarjon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog, Yangi Nishon, Qamashi, Qarshi, G'uzor), 4 ta shaharcha (Dehqonobod, Miroqi, Eski Yakkabog', Qashqadaryo). 147 qishloq fuqorolar yig'ini, 1604 ta qishloqlar mavjud.

Tashkil topgan muddatga ko'ra eng "qadimgi" qishloq tumanlari Yakkabog', Koson, G'uzor va Shaxrisabz hisoblanadi (ular 1926-yilda tashkil

topgan). Bir qator tumanlar esa Qarshi cho'llini o'zlashtirish munosabati bilan (Muborak, Nishon, Kasbi, Mirishkor) vujudga kelgan. Maydoninig ko'lami bo'yicha eng kata tuman Dexqonobod; Mirishkor va Muborak tumanlari ham nisbatan katta hisoblanadi. Yuqoridagi uch qishloq tumanlarining maydoni 10,3 ming kv. km yoki mintaqa hududining 36.0 foizi demakdir. Eng kichik tuman – Kasbida 0,65 ming kv.km yer bor. Shunday qilib viloyat ma'muriy birliklarining geografik koeffsienti 6,1 ga teng; o'rtacha har bir qishloq tumaniga taxminan 2 ming kv. kmdan ziyodroq yer maydoni to'g'ri keladi. Boshqacha qilib aytganda, Qashqadaryoning faqat Dexqonobod tumani hududi Andijon yoki Sirdaryo viloyati maydoniga deyarli teng. Respublikamiz Mustaqillikka erishgandan so'ng har bir viloyatni geografik nuqtai-nazardan o'rganish lozim. Shuning uchun ham ushbu mavzuni geografik jihatdan o'rganish dolzarb mavzudir.

Tadqiqot ishining maqsad va vazifalari.

Ushbu Bitiruv-malakaviy ishda, Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatining Iqtisodiy geografik tavsifi, xususan viloyatning geografik o'rni tabiiy resurslari, aholi va mehnat resurslari, iqtisodiyotining umumiy ta'rifi iqtisodiy geografiknuqtai-nazardan o'rganish maqsadi qo'yilgan.

Shuningdek ushbu maqsaddan kelib chiqib Qashqadaryo viloyati sanoatining yetakchi tarmoqlari, qishloq xo'jaligining yetakchi sohalari, ijtimoiy sohalarining ustuvor yo'nalishlari, transport va tashqi iqtisodiy aloqalar, iqtisodiyotning hududiy tarkibini chuqur o'rganish va tahlil qilish vazifa qilib belgilangan.

Bitiruv-malakaviy ishdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan yutuqlari.

Mazkur Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi mavzusida, hududning geografik o'rni tabiiy resurs salohiyati viloyatning iqtisodiy jihatdan rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati to'g'risidagi ilmiy yangiliklar va erishilgan yutuqlar o'z ifodasini topgan.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati.

Ushbu Bitiruv-malakaviy ishi Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi, shuningdek viloyatning geografik o'rnini tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari, aholisi, mehnat resurslari, xo'jaligining umumiy ta'rifi, shu jihatdan sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy sohalarning ustuvor yo'nalishlari, transport va tashqi iqtisodiy aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlar batafsil yoritilganligi sababli mazkur bitiruv-malakaviy ishidan geografiya ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar foydalanishlari uchun alohida amaliy ahamiyatga ega.

Qashqadaryo viloyatining geografik o'rni va tabiiy resurslari.

Qashqadaryo viloyati Respublikaning janubiy-g'arbida, Qashqadaryo havzasida, Pomir-oloy tog' tizmasining g'arbiy chekkasida, Amudaryo va Zarafshon tizma tog'lari orasida, shimoli-g'arbdan Buxoro, janubi-sharqdan Surxondaryo, janubi-g'arb va g'arbdan Turkmaniston, sharqdan Tojikiston va Samarqand viloyatlari bilan chegaradosh. Viloyat maydoni 28,6ming kv. km bo'lib, mamlakat hududining 6,4 foizini egallaydi. Bu borada Qashqadaryo Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy va Buxoro viloyatlaridan so'ng 4-o'rinda turadi. 2017-yilning 1-aprel holatida viloyatda doimiy aholi soni 3100,2 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 11358 kishiga yoki 1,3 foizga ko'paydi.

Yer usti tuzulishi ancha murakkab- uning taxminan yarmidan ko'proq qismi tekislik va uncha baland bo'lmagan tepaliklardan iborat (250-500 metr dengiz sathidan baland). Katta maydonga ega bo'lgan Qarshi cho'li ham ayni shu yerda joylashgan. Viloyat shimoli-sharq, sharq va janubi-sharqda tog'liklar bilan o'ralgan. Bu yerda Zarafshon va Hisor tizmalari, Chaqchar tog'lari ko'tarilib turadi, ularning eng baland nuqtalari 3750-4400 metrgacha yetadi. Shaxrisabz tumaning chekka sharqiy qismida 4100-4400 metrlik balandlikka ega bo'lgan tog' cho'qqilari bor, masalan, G'ova dovoning balandligi 4415 metr. Umuman olganda, Shaxrisabz, Qamashi, Dexqonobod, Kitob va qisman Chiroqchi tumaning shimoliy qismi tog'liklardan iborat. Nisbatan baland (dengiz sathidan 1400 metr baland) joylar Yakkabog' tumaning sharqiy hududlarida ham bor. Viloyatning qolgan markaziy va G'arbiy qismlari esa pasttekisliklardan tashkil topgan. Shunday qilib, mintaqaning yer usti, orografik tuzulishi shimoli- sharq, sharq va janubi-sharqdan g'arb, shimoli- g'arb yo'nalishda pasayib borishi bilan tavsiflanadi. Qolaversa, Qashqadaryo, yani shu nomli gidrografik tizimning, unung xavzasini shakillanishi, oqim yo'nalishi ham viloyat relyefini o'zida aks ettiradi.

Viloyat relyefining bunday turli-tumanligi o'ziga xos tabiiy boyliklarga ega ekanligini asoslab beradi va ichki hududiy mehnat taqsimoti, iqlim sharoitlarining shakillanishiga sabab bo'ladi. Jumladan, Qashqadaryoning quyi qismi qishloq xo'jaligida foydalanish uchun qulay bo'lgan kata yer maydonlariga ega. Shu bilan birga, bu yer Respublikamizda neft va tabiiy gaz zaxiralarining ko'pligi bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Ko'rillayotgan hududda Ko'kdumaloq, Muborak, Pomuk kabi yirik neft-gaz, Sho'rtan, Zevardi, G'uzor, Janubiy Pomuk, Qamashi, Alan, Qultoqqa o'xshash gaz, Qo'shquduq neft konlari mavjud. Viloyatning Dexqonobod tumani esa turli hil tuz konlari, qurulish materiallari xom ashyosiga boy. Ayniqsa kata zahiraga ega bo'lgan kallyiy tuzlarining borligi mamlakatimizda kaliy o'g'itlarini ishlab chiqarish sanoatini tashkil qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda Tubigatan tuz koni asosida respublikamizda qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan kaliy o'g'itlari ishlab chiqaruvchi dastlabki zavod barpo etilgan.

Bu o'lkada yo'q narsaning o'zi yo'q desam, o'ylaymanki, yanglishmagan bo'laman. Yer osti boyliklari desangiz, eng muhim qazilma resurslari- neft, gaz, kaliy, tuzlari, marmar va boshqa tabiiy zaxiralar shu yerda.

Yer osti boyliklari desangiz, unumdor tuproq, tog' va daryolar, obod shahar va qishloqlar, noyob zavod va korxonalar ham shu yerda. Intelluktual-ma'naviy boylik desangiz, bu borada ham Qashqadaryo beqiyos salohiyatga ega.

Sh. Mirziyoyev

Viloyatning yuqori- Shaxrisabz mintaqasida marmar, g'isht-cherepitsa hom ashyosi va boshqa konlar aniqlangan. Quldarada polemetall rudalari, zarvasda oltin, G'uzor, Yakkabog', Chiroqchida xar- hil qurulish materiallari topilgan. Bu yerda Kitob geologik qo'riqxonasi tashkil qilingan. Shunday qilib, Qashqadaryoda, yoqilg'i-energetika, tog'-kon va gaz kiyosi, qurulish materiallari sanoatini keng ko'lamda rivojlantitishga keng imkoniyatlar bor. Mintaqa bunday ulkan mineral resurs salohiyati bo'yicha respublikamizda alohida ajralib turadi. Bu hususda

Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent viloyati singari mamlakat milliy iqtisodiyoti, eng avvalo, tog'-kon va yoqilg'i-energetika sanoatini rivojlantirishga o'zining munosib xissasini qo'shib kelmoqda.

Iqlimi kontinental, yog'in-sochin miqdori, ayniqsa cho'l mintaqasida juda oz. Binobarin, bu mintaqada dexqonchilikni rivojlantirish uchun irrigatsiya infiraturuzulmasi talab etiladi. Ayni vaqtda tog' oldi va tog' mintaqasida yillik yog'in-sochin miqdori 800-900 mmgacha yetadi. Bu esa daryolarning to'yinishiga qulay imkoniyat yaratadi, va mintaqa iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga tabiiy asos bo'lib hizmat qiladi. Viloyat hududi Qashqadaryo havzasida joylashgan, uning nomi ham, tarixi, geografiyasi ham ayni shu suv nomi bilan bog'liq. Qashqadaryoga, Oqsuv, Tanxozdaryo, Oyoqchidaryo, Qizildaryo va boshqalar kelib quyiladi. Natijada, viloyatning yuqori (Shaxrisabz) mintaqasida gidrografik yizim ancha rivojlangan. Biroq, Qashqadaryo quyi mintaqaga brogan sari uning suvi kamayib boradi va bir vaqtlar Zarafshon daryosigacha borib yetgan bu daryo suvlari hozirda Qarshi-Koson atrofida tomoman tugab qoladi.

Qashqadaryo o'lkasi O'zbekistonning janubida, asosan, Qashqadaryo havzasida joylashgan. Uning shimoliy chegarasi Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog'lari orqali, g'arbiy chegarasi Jarqoq, Muborak va Dengizko'l balandliklari orqali o'tadi. Janubi va janubi-g'arbida Sandiqliqum o'lkani Turkmanistondan ajratib turadi. O'lkaning sharqidagi Hisor tog'lari, janubi-sharqidagi Boysun tog'lari uni Surxondaryo o'lkasidan ajratib turadi.

Qashqadaryo tabiiy geografik o'lkasi yer yuzasi tuzilishi jihatidan bir xil emas. Uning shimoli, shimoli-sharqiy va sharqiy qismida Zarafshon, Hisor va Boysun tog'lari joylashgan. Qashqadaryo o'lkasining shimoli-sharqida Zarafshon tizmasining g'arbiy davomi hisoblangan Chaqilkalon, Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog'lari joylashgan. Chaqilkalonning eng baland Zebon cho'qqisi 2336 m ga yetadi. Bu tog' g'arbga davom etib Taxtaqoracha dovonida (1630 m) tugab, so'ngra Qoratepa tog'i boshlanib, eng baland yeri 2195 m ga yetadi. Qoratepa tog'i

Jom cho'lida tugab, so'ngra g'arbga qarab Zirabuloq (Zindontog' cho'qqisi 1115 m) va Ziyovuddin (Dartko'l cho'qqisi -914 m) tog'lari davom etadi.

Qashqadaryo tabiiy geografik o'lkasining sharqiy qismida Hisor tizmasi va uning davomi hisoblangan Hazrati Sulton (4643 m), Chaqchar, Boysun tog'lari joylashgan. Chaqchar tog'idan janubi-g'arbga tomon yo'nalgan Osmontarash, Beshnov, Ebhonmaydon kabi tog'lar joylashgan. Chaqchar va Hisor tog'lari tutashgan joylarda Botirboy, Seversev kabi kichik muzliklar mavjud.

Qashqadaryo tabiiy geografik o'lkasining tog'li qismi g'arbga va janubi-g'arbga pasayib, Kitob—Shahrisabz botig'iga, so'ngra adirlarga va tekisliklarga tutashib ketadi. O'lkaning tekislik qismi yuzasi bir xil emas, unda onda-sonda qoldiq tog'lar va platolar uchrab turadi. Bu qoldiq tog'larning eng muhimlari Qarshi shahrining shimolida joylashgan Qo'ng'irtog', Koson shahrining janubidagi Kosontog', Maymoqtog' (500m), Sandiqli qumligining sharqidagi Olovuddintog' (485 m), o'lkaning g'arbidagi Jarqoq platosi (397 m), Dengizko'l (380 m) va boshqalar.

Qashqadaryo tabiiy geografik o'lkasining markaziy qismida Qarshi cho'li va vohasi joylashgan. Bu cho'lda nisbatan pastqam joylar bo'lib, ular sho'rxoklardan iborat. Ularning eng muhimlari Do'ltalisho'r, Sho'rsoy, Suxtasho'r, Yonboshsho'r va boshqalar. Qashqadaryo tabiiy geografik o'lkasida bir necha cho'ilar joylashgan. Qarshi cho'lining shimoli va shimoli-g'arbida Qamob, Malik, Jom cho'llari, janubi-sharqida Nishon cho'li joylashgan.

Qashqadaryo tabiiy geografik o'lkasi geologik tuzilishi jihatidan bir xil emas. Uning tog'li qismi paleozoy erasining gersin tog' hosil qilish jarayonida burmalangan bo'lib, kristalli slanes, ohaktosh, marmar, granit kabi jinlardan tashkil topgan. Zarafshon tog'ining g'arbiy davomi hisoblangan Chaqilkalon ko'proq gips, mergel, ohaktoshlardan tashkil topganligi tufayli kars jarayoni rivojlangan. O'sha tog'da O'rta Osiyodagi eng chuqur g'or — Kili (1082 m) g'ori joylashgan.

Qashqadaryo tabiiy geografik o'lkasining tekislik qismi esa Turon plitasining sharqiy chekka qismi ustida joylashgan. Uning ustini esa qum, gil, konglomerat kabi jinslar qoplab olgan. Tekislikdagi qoldiq tog'lar (Oloviddintog', Kosontog' va boshqalar) paleozoy va mezazoy jinslaridan tashkil topgan. Qashqadaryo o'lkasida gaz, neft, marmar, marganes rudasi, gips, dala shpati, har xil qurilish materiallari konlari bor.

Qashqadaryo tabiiy geografik o'lkasining yozi issiq, quruq va davomli, qishi nisbatan iliq. O'lka shimol va sharq tomondan tog'lar bilan o'ralgan. Bu esa Arktika va Sibirdan keladigan sovuq havo massalarining yo'lini to'sadi. Aksincha, g'arbiy qismi ochiq bo'lib, mo'tadil dengiz va subtropik havo massalarining to'siqsiz kirib kelishiga imkon beradi. Shu sababli qishda, yanvarning o'rtacha harorati tekislik qismida $0+2^{\circ}\text{C}$, G'uzorda $+1,9^{\circ}\text{C}$, Kitobda $+0,8^{\circ}\text{C}$, Qarshida $+0,2^{\circ}\text{C}$. Ba'zan tabiiy o'lkaga Sibir va Arktika sovuq havo massasi kirib kelib, turib qoladi va hududni sovitib yuboradi. Natijada harorat G'uzorda -23°C , Kitobda -26°C , Qarshida -27°C Dehqonobodda -29°C gacha pasayadi. Yoz o'lkaning tekislik qismida issiq, quruq va quyoshli bo'lib, uzoq davom etadi. Iyul oyining o'rtacha harorati $28-29^{\circ}\text{C}$ atrofida (Qarshida $+28,8^{\circ}\text{C}$, Kitobda $+28,4^{\circ}\text{C}$, G'uzorda $+29,4^{\circ}\text{C}$, Dehqonobodda $+28,4^{\circ}\text{C}$) bo'ladi. Ba'zan yozda eng yuqori harorat Qarshida $+46^{\circ}\text{C}$, Kitobda $+43^{\circ}\text{C}$, Dehqonobodda $+43^{\circ}\text{C}$ ga ko'tariladi. O'lkaning tog'li qismida yozda havo salqinroq bo'ladi. O'lkada bahor erta, kuz esa kech boshlanadi. O'lkaning g'arbiy qismida yillik yog'in $131-155$ mm bo'lsa, shimoli-sharqida $368-545$ m. Tog'li qismida $700-800$ mm yog'in tushadi. Qashqadaryo tabiiy geografik o'lkasida sovuqsiz kunlar $210-242$ kun davom etadi (Qarshida 209 kun, Dehqonobodda 216 kun, Kitobda 219 kun, G'uzorda 242 kun). O'rtacha sutkalik harorat $+10^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo'lgan davrdagi haroratning umumiy miqdori $2500-2700^{\circ}$ ga teng. Qashqadaryo tabiiy geografik o'lkasida yerusti suvlari ichida eng muhimi daryolardir. O'lkada uzunligi 20 km dan ortiq bo'lgan 33 ta daryo mavjud bo'lib, ularning bir yillik suv miqdori $1,2$ km.kub yoki o'rtacha ko'p yillik suv sarfi sekundiga 45 m³ atrofida. O'lka daryolari ichida eng kattasi Qashqadaryodir.

Qashqadaryo Hisor tizmasining Tog'tosh dovoni yaqinidan boshlanib Muborakka yetmasdan qumlarga singib ketadi. U tog'li qismida tor o'zanda tez oqadi, Oqsuv irmog'i qo'shilgandan so'ng vodiysi kengayib tekislikka chiqadi. Qashqadaryo so'ngra Tanxoz, Yakkabog'daryo, Langar, G'uzordaryo kabi irmoqlarini qo'shib oladi. Qashqadaryoning o'ng tomonida irmoqlari yo'q, faqat Qoratepadan boshlanuvchi bir necha soylar mavjud. Qashqadaryo qor suvlaridan to'yinsa-da, lekin uning Jinnidaryo, Oqsuv, Yakkabog' va Tanxoz irmoqlari qor-muzlik suvidan to'yinish turiga kiradi. Chunki ularning havzasida umumiy maydoni 20,3 km.kv maydonga ega bo'lgan kichik muzliklar joylashgan.

Jinnidaryo Hisor tizmasining Oqota va Sherdog' tog'lari orasidagi buloqlardan boshlanib, uzunligi 57 km. U qor va muz erishidan to'yinib, suvi mart-iyun oylarida ko'payadi. O'rtacha ko'p yillik suv sarfi sekundiga 1,56 m³. Uning 68,3% ini mart-iyun oylarida oqizadi.

Oqsuv. Uzunligi 115 km bo'lib, Hisor tizmasidagi Botirboy va Seversev muzligidan boshlanuvchi Botirboy bilan Xonakasuv irmog'ining qo'shilishidan vujudga keladi. U qor-muzliklarning erishidan to'yinib, o'rtacha ko'p yillik suv sarfi sekundiga 12,3 m³, uning 48,3% ini mart-iyunda oqizadi.

Tanxozdaryo. Uzunligi 104 km Hisor tizmasidagi G'oziko'ldan boshlanib, qorlarning erishidan va yerosti suvlaridan to'yinib, o'rtacha ko'p yillik suv sarfi sekundiga 4,23 m³. Uning 63,6% ini mart-iyun oylarida oqizadi.

Yakkabog'daryo. Uzunligi 108 km bo'lib, Hisor tizmasining janubi- g'arbiy yonbag'ridan boshlanadi. U qorlarning erishidan to'yinib. o'rtacha yillik suv sarfi sekundiga 6,73 m³, uning 61,6% ini mart-iyun oylarida oqizadi.

G'uzordaryo. Uzunligi 86 km bo'lib, Chaqchar tog'idan boshlanadi. U qorlarning erishidan va yerosti suvlaridan to'yinib, o'rtacha yillik suv sarfi sekundiga 5,90 m³ bo'lib, uning 63,9% ini mart-iyun oylarida oqizadi.


Qashqadaryo tabiiy geografik o'lkasida yerosti suvining katta zaxirasi bor. Bu yerda to'rtlamchi davr yotqiziqlari orasidan chiqadigan suvlar ichishga yaroqli bo'lib, hozirgi paytda aholini va chorvachilikni suv bilan ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Bulardan tashqari bo'r, paleogen davr yotqiziqlari orasidan

shifobaxsh issiq mineral suvlar topilgandaryo suvini 150-200 metr balandlikka ko'tarib beradi. Qarshi cho'lida ko'proq och bo'z tuproq tarqalgan. Uning g'arbida esa cho'l sur-qo'ng'ir qumli, sho'rxok va o'tl Qashqadaryoning qadimiy o'zanlarida o'tloq va sho'rxok tuproq uchraydi. O'lka tekislik qismining atroflaridagi nisbatan baland joylarda och bo'z tuproq keng tarqalgan. Adirlarda esa oddiy va to'q bo'z tuproqlar uchraydi. Bu tuproq turlari 1200 m gacha bo'lgan baland joylarda tarqalgan. Ular tarkibida chirindi miqdori 1,5—2,5 foizga boradi. 1200—2500 m balandliklarda tog'-jigarrang va tog'-qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. O'lkadagi tog'larning 2500 m dan baland qismlarida qo'ng'ir tog'-o'tloq, torfli-o'tloq va o'tloq tuproqlar tarqalgan. Qashqadaryo o'lkasidagi sug'oriladigan yerlarda madaniy voha tuprog'i uchraydi. O'lkaning g'arbiy tekislik qismida hamda janubi-g'arbidagi Sandiqliqumhgida qurg'oqchilik va qumga moslashgan o'simliklar -juzg'un, iloq, selin, kavrak, qizil qandim, yetmak, bulduruq o'ti va saksovul o'sadi.

Mustahkamlangan qumlarda shuvoq va efemerlar ko'proq. Gilli cho'llarda shuvoq, sho'ra o'tlar, mingbosh, juzg'un va boshoqli o'simliklar o'sadi. Qashqadaryo adirlarida shuvoq, burg'un, bug'doyiq, kavrak, oqquray, qo'ziquloq, qurg'oqchil va toshloq yerlarda bir yillik astragal, chiy kabilar o'sadi. Adirda, shuningdek, bodom, zirk, do'lana kabilar ham uchraydi. 1500-2500 metr balandliklarda o'tlardan bug'doyiq, shuvoq, tipchoq, javdar, shirach, daraxtlardan archa, yong'oq, zarang, qayin, tol, terak, bodom, pista, olcha, do'lana o'sadi. Uning tekislik qismida cho'lga moslashgan hayvonlar-sariq yumronqoziqlar, qo'shoyoq, sichqon, kaltakesak, echkemar, ilon, bo'ri, tulki, jayronlar yashaydi. Daryo vodiylaridagi to'qayzorlardachiyabo'ri, qirg'ovul, to'qay mushugiuchraydi. O'lkaning tog'li qismida ayiq, tog' takasi, tog' qo'yi, bo'rsiq, bo'ri, to'ng'iz, silovsin, o'rmon kalamushi, qizildum sug'uri, kulrang sassiqko'zan, suvsar, jayra, burgut, kaptarhamda shunga o'xshash hayvon va parrandalar yashaydi. O'lka hududida Hisor qo'riqxonasi barpo etilgan. Bu qo'riqxonada Hisor tizmasining g'arbiy qismida joylashgan. Uning maydoni 78 ming gektar bo'lib, archazorlar va u yerda uchrovchi oq timoqli Hisor ayig'i, qor

qoplani, tog' echkisi, to'ng'iz, kaklik, Turkiston silovsini, alqor, kiyik kabilar muhofaza qilinadi. Qashqadaryoda sug'orma dexqonchilikni rivojlantirish maqsadida 70-yillarda Qarshi cho'llari o'zlashtirishi keng miqyosda olib borilgan. Hozirgi kunda viloyat hududida qator suvg'orish inshootlari- Hisorak, Qalqamin, Chimqo'rg'on va Qamashi suv omborlari barpo etilgan. G'uzor tumani yerlarining asosan Pachkamar suv ombori va G'uzordaryo sug'oradi. Yirik Qarshi magistrall kanalli Amudaryodan boshlanadi va qisqa masofada qo'shni Turkmaniston hududidan o'tadi, so'ngra u kata Tallimarjon suv omboriga quyiladi, undan suv qudratli nasos stansiyalari yordamida 132 metr balandlikka ko'tarilib beriladi. Bundan tashqari, cho'l mintaqasi Mirishkor (avvalgi Uliyanov), Nishon kanallari suvlari bilan ham sug'oriladi. Viloyatning shimoliy qismiga, asosan Chiroqchi tumaniga, Zarafshon daryosi suvlari Eski Anhor kanalli orqali yetib keladi. Respublikamizning shunga o'xshash boshqa hududlarida bo'lganidek, bu yerda ham ko'plab zovurlar (kollektorlar) va to'planob qolgan sho'r, oqova suvlaridan tashkil topgan tuz ko'llar bor. Ular ko'proq Qarshi dashtida uchraydi. Demak bir tomondan, kanal va suv omborlari yerlarni sug'orishda hizmat qilsa, obodonlashtirsa, ikkinchi tomondan, zovur va sun'iy ko'lchalar hudud agroekologiyasining noqulayligidan darak beradi. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan kollektor- drenaj tizimlarini ta'mirlash, tozalash va yangilarini qurishga kata e'tibor berilmoqda. Ushbu muammo ayniqsa, Qarshi dashti miqyosida joylashgan qishloq tumanlari uchun dolzarbdir. Qisqacha tahlildan ko'rinib turibdiki, viloyat agroiqlimiy sharoitlari hamma joyda ham bir xil emas. Chunonchi, uning yuqori qismida intensiv dexqonchilikni rivojlantirish, bog'g'dorchilik uzumchilikni tashkil qilish uchun imkoniyatlar mavjud bo'lsa, quyi- cho'l mintaqasida tabiiy sharoit qadimdan g'alla va chorvachilik uchun qulay bo'lgan. Keyinchalik bu yerda ham sug'orma dehqonchilik, paxtachilik rivojlanib borgan. G'allachilik qisman tog' etaklarida lalmikor dehqonchilik asosida ham tashkil etilgan.

SIYOSIY-MA'MURIY XARITA



- ### AHOLI PUNKTLARI
- Aholing joylashishi tipi va soniga ko'ra
- Shaharlar
 - 100 000 dan 500 000 gacha aholi
 - 50 000 dan 100 000 gacha aholi
 - 10 000 dan 50 000 gacha aholi
 - 10 000 dan kam aholi
- ### QARSHI
- 100 000 dan 500 000 gacha aholi
- ### KOSON
- 50 000 dan 100 000 gacha aholi
- ### BESHKENT
- 10 000 dan 50 000 gacha aholi
- ### QOROVILBOZOR
- 10 000 dan kam aholi

- ### SHARTLI BELGILAR
- Shaharchalar
- Pomuz
 - Oqtepa
 - Langar
- ### Qishloqlar
- Langar

- ### SIYOSIY-MA'MURIY AHAMIYATIGA KO'RA
- Qashqadaryo viloyati markazi
 - Qashqadaryo viloyati tumanlarining markazlari
- ### CHEGARALAR
- davlatlar
 - O'zbekiston Respublikasi viloyatlari
 - Qashqadaryo viloyati tumanlari

- ### ALOQA YO'LLARI
- Temir yo'llar
- Temir yo'l bekatlari, raz'edlar va ularning nomlari
- Avtomobil yo'llari
- Xalqaro ahamiyatga ega va ularning nomlari
- O'zbekiston hududida respublika ahamiyatiga ega va chet el hududlarida asosiy
- Boshqalar
- Tuproqli qishloq yo'llari

MA'MURIY-HUDUDIY BO'LINISHI
 Markazi - Qarshi sh (254,6 ming kishi)
 Tashkil topgan sanasi 1943 y.20.01.
 Hududi - 28,57 ming km kv.
 Aholisi - 2895,3 ming kishi (2014 y.01.01.)

Tumaning saritadagi №	Tuman nomi	Markazi nomi	Hudud maydoni (ming kv)	Aholi soni ahliardan: shaharlar, shaharlar hududida, qishloq barchalarida
13	Dehqonobod	Qorashan sh-cha	4,00	128,8
14	Kitob	Mur'lon sh-cha	0,65	173,3
4	Koson	Kitob sh	1,75	234,0
2	Mirshikor	Yangi Mirshikor sh-cha	1,88	250,1
11	Muborak	Muborak sh	3,21	109,8
8	Nishon	Qorashan sh	2,11	130,4
12	Qarshi	Qarshi sh	2,66	237,2
19	Yakkabog'	Beshkent sh	0,91	215,4
10	Yakkabog'	Yakkabog' sh	1,10	231,2
3	Chiroqchi	Chiroqchi sh	2,84	380,0
3	G'uzor	G'uzor sh	2,66	181,5
				42,9
				138,7

Qashqadaryo viloyatining aholisi va mehnat resurslari.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda demografik jarayonlarning xududlarda qanday kechayotganligini o`rganish, davlatning demografik, iqtisodiy – ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishida muhim o`rin tutishi bilan ham ahamiyatli. Shu jixatdan olib qaralganda, respublikamiz janubida joylashgan Qashqadaryo viloyati o`zining tabiiy sharoiti, mineral resurslari, iqtisodiy salohiyati va demografik jarayonlarning kechishiga ko`ra boshqa xududlardan ajralib turadi. 2017-yilning 1-aprel holatida viloyatda doimiy aholi soni 3100,2 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 11358 kishiga yoki 1,3 foizga ko`paydi, va mamlakatimizda oxirgi marta o`tkazilgan 1989 yilgi aholi ro`yxatiga (1596 ming) nisbatan 866 ming kishiga yoki 154,2 foizga o`sgan. Bu davrda o`rtacha yillik ko`payish 2,46 foizga teng bo`lgan. Ko`rilayotgan yillar mobaynida respublika aholisi 19810 ming kishidan 26663 ming kishiga ko`paygan bo`lib, 134,5 foizga yoki mutloq raqamda 6853 ming kishiga ortgan; o`rtacha yillik ko`payish 1,65 foiz atrofida bo`lgan. So`nggi yillarda respublika aholisining tabiiy ko`payish sur`ati biroz pasaymoqda. Ayni vaqtda bu jarayon Qashqadaryo va Surhondaryo viloyatlarida, boshqa xududlarga qaraganda, nisbatan yuqori.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyati O`zbekistonda urbanizatsiya darajasi eng past bo`lgan (Xorazm, Surxondaryo viloyatlari bilan birga) xududlardan hisoblanadi. Masalan, respublikamizda urbanizatsiya darajasi 35,9 foiz bo`lgani holda, vohada bu ko`rsatkich 24,6 foizga teng, ya`ni viloyat aholisining 601,6 ming nafari (24,6 %) shaharliklar, 1855 mingini (75.4%) esa qishloq aholisi tashkil qiladi. Hozirda Qashqadaryo viloyatida 12 ta shahar va 4 ta shaharcha mavjud. Qarshi - viloyatning eng yirik shahri, viloyatga bo`ysunuvchi yagona shahar bo`lib, bu yerda 219 ming kishi istiqomat qiladi. Viloyatning qolgan shaharlari (Tolimarjondan tashqari) tuman markazlari vazifasini bajaradi va bevosita tumanga bo`ysunuvchi shaharlar guruhiga kiradi. Shahrisabz (91,6 ming) va Koson (60 ming) shaharlari respublikamizning aholi soni 50 mingdan ortiq bo`lgan shaharlari qatoridan o`rin oladi. 1989 yilda viloyatda aholisi 200 mingdan ortiq bo`lgan faqatgina Shahrisabz tumani mavjud bo`lgan bo`lsa, 100-200 ming kishilik

tumanlarga Chiroqchi (172 ming), Yakkabog' (131 ming), Koson (130 ming), Kitob (124 ming), Qamashi (123 ming); 100 mingdan kam aholisi bo'lgan tumanlarga G'uzor (98 ming), Kasbi (90 ming), Dehqonobod (70 ming), Nishon (63 ming), Mirishkor (52 ming), Muborak (45 ming) kirgan. Mustaqillik yillarida qishloq aholisining barqaror o'sishi natijasida hozirda 13 ta qishloq tumanlaridan 6 tasida 200 mingdan, 5 tasida 100 mingdan ortiq, faqatgina 2 tasida 100 mingdan kam aholi yashaydi. Statistik ma'lumotlar asosida ko'rilayotgan davr mobaynida aholi soni eng ko'p o'sgan tumanlarga Chiroqchi (171,2 %), Qamashi (163,4 %), Kitob (160,4 %) tumanlari tegishli bo'lsa, Shahrisabz va Qarshi tumanlarida aholi o'sishi birmuncha, past bo'lganligini ko'rishimiz mumkin (mos ravishda 140,8 va 137,2%). Bu holatni xududlar miqyosida qaraydigan bo'lsak, 1989 yilda viloyat jami aholining 28,4 foizi tog' oldi mintaqasi (Kitob, Shahrisabz, Yakkabog'), 29,0 foizi adir mintaqasi (Chiroqchi, Qamashi, G'uzor, Dehqonobod), 42,6 foizi tekislik mintaqasi (Koson, Qarshi, Muborak, Mirishkor, Kasbi, Nishon) tumanlariga to'g'ri kelgan. Hozirgi vaqtda maydoni 4,8 ming km.kv. (17%) bo'lgan tog' oldi mintaqasida 27,7 foiz 12 ming km.kv. (42%) maydonini egallagan adir mintaqasida 30,5 foiz, hamda 11,8 ming km.kv. (41%)ga teng tekislik mintaqasida 41,8 foiz aholi istiqomat qiladi. Taxlillar shuni ko'rsatmoqdaki, o'rganilayotgan davrlar mobaynida aholi zichligi yuqori bo'lgan (1 km.kv. ga 143 kishi) tog' oldi tumanlarining viloyat jami aholi sonidagi ulushi 0,7 foizga, cho'l tomonlarga 0,8 foizga kamaygani holda, bu xududlarni bir – biriga bog'lovchi adir mintaqasining demografik sig'imi 1,5 foizga oshgan. Kelajakda viloyat aholisining ko'payib borishida yer resurslari yetarli bo'lgan adir mintaqasi tumanlarining roli ortib va, aksincha, yer hamda suv manbalari cheklangan tog' oldi va cho'l tumanlarining ulushi kamayib borishi kuzatiladi. Ayni vaqtda, bevosita viloyat markazi va Shahrisabz shahriga tutash qishloq joylar aholisi zichlashib boradi. Qashqadaryo o'zining aholi soni bo'yicha O'zbekistonda Samarqand va Farg'ona viloyatlaridan keyingi uchunchi o'rinni egallaydi. U ayni vaqtda, aholi soning o'sish jihatidan Surxondaryo viloyati bilan birgalikda mamlakat demografik vaziyatida yetakchilik qiladi: agar O'zbekiston aholisi 1989-2014-yillarda 128,1foizga o'sgan bo'lsa,

Surxondaryoda bu ko'rsatkich 144,6 va Qashqadaryoda 142,5foizga teng. Shu o'rinda takidlash lozimki bu ikki viloyat umumrespublika hozirgi demografik vaziyatni shakillantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Aholi soni bo'yicha viloyatda Chiroqchi tumani oldinda turadi (349,9 ming, 2014-yil); Shaxrisabz tumanida, Shaxrisabz shahrini qo'shib hisoblaganda, aholi soni 324 ming kishidan iborat. Shuningdek Qamashi, Koson, Kitob va Yakkabog' tumanlarining har birida 200 ming kishidan ko'proq aholi bor. Umuman, yuqorida keltirilgan qishloq tumanlari bu jihatdan Respublikamizda ham ajralib turadi. Aholi soni faqat Muborak tumanida 100 ming kishidan oz holos. (1-jadval). 2017-yilning o'tgan davrida Dasturga asosan 498 ta savdo va xizmat ko'rsatish sektorlari tashkil qilinib jami 2259 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Ushbu yaratilgan ish o'rinlarining 86 foizi qishloq joylarga to'g'ri keladi. Joriy yilning 9 oyida Qashqadaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulot xajmi 10 trillion 630 milliard so'mdan ziyodni, o'sish su'rati 6,5 foizni tashkil etdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 62,3 foizga yetdi. Mamlakatimizda jalb etilayotgan investitsiyalarning 11,2 foizi Qashqadaryo viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Bu yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etilishi, ish o'rinlari ko'payib, aholining turmush farovonligi hamda daromadning yanada oshishiga zamin yaratmoqda.

Qashqadaryo viloyatidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi orasidagi ma'lumotlarni ko'radigan bo'lsak, yangidan tashkil etilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni 2005- yilda 1326 tani tashkil etgan bo'lsa (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari), 2017- yil yanvar, holatiga ko'ra 1743 tani tashkil etgan. Viloyatda iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlar ulushi kamaygan, aksincha norasmiy sektorda bandlar va respublikadan tashqarida ishlash uchun ketgan fuqarolar ulushi ortib turgan bir vaqtda Prezidentimiz tashabbusi bilan umumiy qiymati uch trln so'm bo'lgan to'rt mingga yaqin loyiha dasturi ishlab chiqildi. 2017-2018-yil davomida viloyatda jami 50 mingga yaqin muqim ish o'rnini yaratish rejalashtirildi. Bu viloyatda rasmiy sektorda bandlar ulushini oshishiga ta'sir ko'rsatib mehnat resurslaridan unumli foydalanish va fuqarolarning ayrim muammolariga yechim topishiga turtki bo'ldi.

(1-jadval)

Qashqadaryo viloyatining qishloq tumanlari maydoni va aholisi (1.01.2014 y)

Qishloq Tumanlari	Tashkil topgan yili	Tuman markazi	Maydoni, ming kv ²	Aholisi, ming kishi	Aholi zichligi, 1kv. km/kishi
Dexqonobod	31.08.1971	Karashina sh.	4,00	126,6	31,7
Kasbi	25.12.1968	Mug'lon sh-cha.	0,65	173,3	266,6
Kitob	25.12.1968	Kitob sh.	1,75	233,9	133,7
Koson	29.09.1926	Koson sh.	1,88	250,1	133,0
Mirishkor	25.04.2003	Mirishkor sh.	3,21	106,7	33,2
Muborak	13.09.1978	Muborak sh.	3,07	77,8	25,3
Nishon	06.03.1975	Yangi Nishon.	2,11	130,4	61,8
Chiroqchi	22.02.1964	Chiroqchi sh.	2,84	349,9	123,2
Shaxrisabz	29.09.1926	Shaxrisabz sh.	1,66	324,3	195,4
Yakkabog'	20.09.1926	Yakkabog' sh.	1,10	231,3	210,3
Qamashi	31.12.1964	Qamashi sh.	2,66	237,2	89,2
Qarshi	04.10.1931	Beshkent sh.	0,91	215,4	236,7
G'uzor	29.09.1926	G'uzor sh.	2,65	181,6	236,7
Viloyat	20.01.1943	Qarshi sh.	28,6	2895,5	101,2

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Viloyat tabiiy geografik muhitga mos holda, aholi uning hududida bir tekis joylashmagan. O'rtacha zichlik -1km^2 ga 101 kishi, bu raqam respublika o'rtacha ko'rsatkichidan deyarli 1,5 marta yuqori. Aholi, hususan Kasbi, (267 kishi), Qarshi (231 kishi), Yakkabog'(210 kishi) va Shaxrisabz (195 kishi) tumanlarida zich joylashgan, Muborak, Dexqonobod Mirishkor qishloq tumanlarida esa zichlik ancha past.

Keyingi yillar mobaynida, yani 1989-2014-yillar oralig'ida aholi soni ancha tez ko'payib borgan: Muborak tumanida o'rtacha yillik ko'payish 5,70, Kosonda 4,75%, Kitob va Nishon tumanlarida 4,10 foizni tashkil qilgan. Pastroq nisbatan demografik o'sish Dexqonobod (2,40%), Qarshi (2,50%) va Kaspi (2,50%) tumanlarida kuzatiladi. Shu o'rinda etirof etib o'tish lozimki, mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha Muborak tumani respublikamizda eng oldingi orinlarni egallaydi. Tuman aholisining bunday tez o'sishi nafaqat tabiiy ko'payish balki aholi migratsiyasi bilan ham bog'liq (tabiiy resurslarni o'zlashtirish natijasida aholi bu yerga ko'plab ko'chib kelgan). Yuqori mintaqaga (Shaxrisabz, Yakkabog' va Kitob tumanlari) ko'p jihatdan respublikamizning aholisi zich, xo'jaligi intensiv rivoj topgan voha va vodiylarga o'xshab ketadi. Shu bilan birga, aholi zichlik ko'rsatkichlari quyi mintaqaning ayrim tumanlarida (Kasbi, Qarshi) ham ancha yuqori.

Aholining tabiiy harakat ko'rsatkichlari boshqa hududlarga qaraganda (Surxondaryodan tashqari) sezilarli darajada farq qiladi. Chunonchi, bu yerda tug'ulish koeffitsienti har ming kishiga aholiga 25,1 kishini tashkil etadi. Eng yuqori daraja 2000-yilda Chiroqchi tumanida bo'lib, u bu yerda yaqin 34 kishiga barobar (O'zbekistonda oldingi o'rinlarda). Yakkabog' tumanida ham tug'ulish ancha yuqori $-26,7\%$. Ayni vaqtda, umumiy tug'ulish koeffitsienti Mirishkor, Qarshi shahri va tumanida pastroq. 2013-yilda ham Chiroqchi tumani tug'ulish koeffitsienti bo'yicha ajralib turadi. (30,3%). Qolganqishloq tumanlari orasida katta farq kuzatilmaydi, viloyat markazi – Qarshi shahrida tug'ulish 21,5 promille.

Qayd etish lozimki, Qashqadaryoda, tug'ulish kamayib bormoqda, biroq bu jarayon mamlakatning boshqa viloyatlariga nisbatan asta-sekilik bilan sodir bo'lmoqda, (2-jadval). Surxondaryoda ham xuddi shunga o'xshash demografik vaziyat, demak, ularning bir iqtisodiy rayonga birlashtirilishi geodemografik omil bo'yicha ham asoslangan. Umuman olganda, jadval tahlili viloyat aholisining tug'ulish darajasiga katta tofovutlar borligini ko'rsatmaydi: eng yuqori va eng past ko'rsakich qishloq tumanlari miqyosida 8,8 ‰ ga barobar, 2000-yilda bu farq 9,2 promillega teng bo'lgan.

Aholi o'limi koeffsientida ham katta farqlar kuzatilmaydi. U 2013-yilda Kitob va Nishon tumanlarida 3,5‰, Mirishkorda 3,2‰ bo'lgan. Aholi tabiiy harakatining yakuni, yani tabiiy ko'payish esa ko'proq tug'ulish darajasida shakillangan: Eng yuqorisi Chiroqchida, nisbatan pastrog'i Qarshi tumanida qayd etiladi. Shunday qilib, tug'ulishning yuqoriligi, o'lim ko'rsatkichining ancha pastligi viloyatda aholi soning tez o'sishiga sabab bo'ladi.

Migratsiyaning aholi soni o'sishiga ta'siri uncha kuchli bo'lmasada, u avvalgi yillarda salbiy bo'lgan. Masalan, 1997- yillarda shahar joylarda migratsiya qoldig'i minus, 1440, 1998- yilda 1765 kishini tashkil etgan. Qishloq joylarda bu ko'rsatkich mos xolda, minus 2910 va 2205 kishi. 2013- yil natijalariga ko'ra, har ming kishi hisobiga Nishon tumaniga 9 kishi kelgan va 6 kishi ketgan, migratsiya qoldig'i 3 kishini tashkil etgan. Qarshi tumanida kelish koeffsienti 10,5, ketish 4,0 promille, migratsiya natijasi 6,5 promille yoki 0,65%. Qashqadaryo viloyatining qolgan aksariyat qishloq tumanlarida aholi migratsiyasining natijasi 2013- yilda ijobiy bo'lgan: viloyatga kelganlar 4,8, ketganlar 3,7 promille, migratsiya qoldig'i minus 1,1‰. Manfiy ko'rsatkichlar Qarshi shahri, G'uzor, Muborak va Mirishkor tumanlarida qayd etilgan. Shu bilan birga qayd etish joizki, Quyi mintaqaning ayrim tumanlari aholisi (masalan, Muborak, Kasbi, Nishon, Mirishkor) asosan migratsiya natijasida shakillangan. Viloyatning umumiy urbanizatsiya darajasi 43,3%- bu respublika ko'rsatkichidan ancha past (51,2%). Bu yerda hammasi bo'lib 13 shahar va 123 ta shaharcha bor. Ulardan Qarshi O'zbekistonning 17 katta

shaharlari qatoriga kiradi (225 ming kishi), Shaxrisabzda 100 mingga yaqin, Kosonda 69 ming aholi yashaydi; Qamashi va Kitob shaharlarida 37-40 ming aholi bor. Qolgan shahar va shaharchalarda aholi soni bundan ozroq. 2009- yilda “Qishloq taraqqiyoti va farovonlik yili” Davlat dasturini qabul qilinishi munosabati bilan viloyatning 119ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berilgan. Natijada, umumiy urbanizatsiya darajasi 2008- yildagi 24,6 foizga teng bo’lgan holda, u birdaniga 19,0 foizga ortdi. Yangi shaharchalar (agrosaharchalar, ayniqsa) Shaxrisabz, Qarshi, Kitob va Yakkabog’ tumanlarida ko’p. Shaxrisabzda bunday maqomga 18ta, Qarshida 15, Kitobda 14, Yakkabogda 13 taqishloqlar ega bo’lgan. Qashqadaryoning yuqori zonasida joylashgan qishloq tumanlarida intensiv sug’orma dexqonchilik yaxshi rivojlangan va aholi shu asosda aholi zich, katta- katta qishloqlar shakillangan. Nisbatan ozroq yangi shaharchalar Mirishkor (3 ta) va Dexqonobod tumanlarida (2 ta) paydo bo’lgan. Yangi shaharchalarning aholi soni bo’yicha eng kattalari: Maymanoq- 19,5 ming kishi, Fazli- 11,5 ming kishi (Kasbi tumani), Yangi Mirishkor- 16,3 ming kishi, Pomuk- 13,0 ming kishi (Mirishkor), Qarliq- 14,9 mig kishi (Muborak tumanida), Qarashina- 11,1 ming kishi (Dexqonobod tumani) va hokozolar.

(2-jadval)

Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlari aholisining tabiiy harakati

(promilleda)

t/r	Qishloq Tumalari	2000-yil			2013-yil		
		tug'ulish	o'lim	tabiiy ko'payish	tug'ulish	o'lim	tabiiy ko'payish
1	Dexqonobod	27,9	4,9	23,0	25,5	4,3	20,8
2	Kasbi	28,8	4,2	24,6	24,2	4,0	20,2
3	Kitob	28,3	4,3	24,0	25,5	3,5	22,0
4	Koson	28,1	4,0	24,1	24,7	3,6	21,1
5	Mirishkor	25,5	4,3	21,2	23,6	3,2	20,4
6	Muborak	30,7	4,8	25,9	23,1	3,9	19,2
7	Nishon	27,0	2,8	24,2	24,1	3,5	20,6
8	Chiroqchi	33,8	4,5	29,3	30,0	3,6	26,4
9	Shaxrisabz	24,6	4,4	20,2	26,5	3,9	22,6
10	Yakkabog'	27,2	4,1	23,1	26,7	3,9	22,8
11	Qamashi	27,3	4,4	22,9	25,4	3,7	21,7
12	Qarshi	24,7	4,2	20,6	21,2	4,4	16,8
13	G'uzor	28,1	4,8	24,4	24,4	4,1	20,3

Jadval Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzulgan.

Yangi shaharchalar (agroshaharchalar, ayniqsa) Shaxrisabz, Qarshi, Kitob va Yakkabog' tumanlarida ko'p. Shaxrisabzda bunday maqomga 18ta, Qarshida 15,

Kitobda 14, Yakkabogda 13 taqishloqlar ega bo'lgan. Qashqadaryoning yuqori zonasida joylashgan qishloq tumanlarida intensiv sug'orma dexqonchilik yaxshi rivojlangan va aholi shu asosda aholi zich, katta- katta qishloqlar shakillangan. Nisbatan ozroq yangi shaharchalar Mirishkor (3 ta) va Dexqonobod tumanlarida (2 ta) paydo bo'lgan. Yangi shaharchalarning aholi soni bo'yicha eng kattalari: Maymanoq- 19,5 ming kishi, Fazli- 11,5 ming kishi (Kasbi tumani), Yangi Mirishkor- 16,3 ming kishi, Pomuk- 13,0 ming kishi (Mirishkor), Qarliq- 14,9 mig kishi (Muborak tumanida), Qarashina- 11,1 ming kishi (Dexqonobod tumani) va hokozolar.




Viloyatda 147 ta qishloq fuqorolar yig'ini, 1604 ta qishloq mavjud. Dexqonobod, Qamashi, Kitob, Chiroqchi, Shaxrisabz va Yakkabog' tumanlarining har birida 100 dan ortiq qishloqlar mavjud. (eng ko'pi Kitob tumanida -144). Son bo'yicha eng oz Qishloqlar Muborak (15 ta). Mirishkor (23 ta) va Nishon (30 ta) tumanlarida. Bu ma'muriy hududlarning barchasi yangi yerlarni o'zlashtirish bilan tashkil etilgan. Qishloq aholi va aholi geografiasining asosiy hususiyatlari tabiiy sharoit va uning ta'sirida xo'jalik tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi va ixtisoslashuvi bilan tavsiflanadi. Masalan Shaxrisabz guruh tumanlarida nisbatan katta qishloqlar, tog' va tog'oldi hududlarda esa nisbatan kichikroq qishloqlar joylashgan. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, viloyat qishloq aholi geografiasini asosan o'rta darajadagi qishloqlar, yani har birida 1000-3000 aholi manzilgohlari belgilab beradi. Bunday qishloqlar soni 474 ta yoki jami qishloqlarning 45,4 foizini tashkil qilib, ular viloyat umumiy aholisining 53,3 foizini o'zida mujassamlashtiradi. Katta qishloqlarning demografik salohiyati esa 21,7 foizga teng. Demak, o'rta va katta qishloqlarda mintaqa aholisining deyarli 4/5 foizi yashaydi, xolos. Ma'lumki, qishloq taraqqiyotiga doir Davlat dasturida ko'rsatilgan tadbirlarni amalga oshirishda, xususan ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy infiratzulmalarni hududiy tashkil etish va rivojlantirishda, eng avvalo, aholi punkitlarining katta-kichikligi muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai-nazardan, bunday qishloqlarda mazkur masalalarni hal qilish ancha qiyin.

Qashqadaryo viloyati qishloq aholi punktlarining tarkibiy tuzulishi

Qishloq, aholi soni bo'yicha	Qishloq aholi punktlari		Aholisi	
	Soni	Foizda	ming, kishi	Foizda
250 kishigacha	46	4,4	7,7	0,5
251-500 kishi	129	12,3	51,3	3,6
501-1000 kishi	310	29,6	230,5	15,9
1001-2000 kishi	369	35,3	515,0	35,6
2001-3000 kishi	105	10,1	255,8	17,7
3000 kishidan yuqori	87	8,3	386,4	26,7
Viloyat bo'yicha jami	1046	100	1590,0	100

Jadval Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan. Boshqa viloyatlarda bo'lganidek, Qashqadaryo aholisi milliy tarkibida o'zbeklar keskin ajralib turadi-92,3%. Ikkinchi o'rind tojikar- 4,4%. Qolgan millat vakillaridan turkman va ruslar ko'proq (2013-yil).2014- yil 1- yanvar dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, Qashqadaryoda mehnatga layoqatli aholining soni 1654 ming kishi. Shundan 1131 ming kishi iqtisodiy faol hisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlarida band aholi 1072 ming kishi. 2013- yil yakunlari bo'yicha bir yilda 89,4 ming yangi ish o'rinlari yaratilgan (asosan qishloq joylarda). Biroq shunga qaramasdan, viloyatda, hususan, uning aholisi zich tumanlarida mehnat resurslaridan to'laroq foydalanish va mehnat bozori faoliyatini yaxshilash muammosi mavjud. Iqtisodiyotda band aholining katta qismi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi (35-40 foiz). Shu bilan birga, ijtimoiy sohalarda ham bu ko'rsatkich ancha yuqori, sanoat, transport va aloqada u pastroq. Umumiy holat viloyat urbanizatsiya darajasining iqtisodiy jihatlarini o'zida aks ettiradi.

SHARTLI BELGILAR



Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining umumiy ta’rifi.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan agrar – industrial iqtisodiyotga yo’nalishiga ega. Yaqin kelajakda uning industrial-agrar hususiyatini olishga tegishli imkoniyatlar mavjud. Xozirgi vaqtda viloyat yuksak iqtisodiy salohiyatga moliq bo’lgan mintaqalardan hisoblanadi. U Respublika milliy iqtisodiyotida o’ziga hos “lokomotiv” vazifasini bajarayotir. Bu yerda sanoatning neft-gaz, tog’- kon kimyosi tarmoqlari taraqqiy etgan, paxta, g’alla, chorvachilik mahsulotlarini rivojlantirish yaxshi rivojlangan. Xususan neft, va gaz, paxta va g’alla yetishtirishda u mamalakatimizda birinchi, kimyoviy mahsulotlar (polietilen va boshqalar.) chorvachilik bo’yicha ham odingi o’rinlarni egallaydi.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy salohiyati ulkan. Bugungi kunda mamlakatimizda qazib chiqarilayotgan tabiiy gazning 70 foizi, neftning qariyb 78 foizi, gaz kondensatining 80 foizi, g’allaning

13 foizdan ortig’i, paxtaning 14 foizdan ziyodi ushbu viloyat hissasiga to’g’ri keladi. Viloyatda sanoat izchil rivojlanmoqda. Yalpi hududiy mahsulotda bu sohaning ulushi 38 foizni tashkil etayotgani ham shundan dalolat beradi. “Sho’rtan neft-gaz”, “Muborak neft-gaz” korxonalari, “Sho’rtan gaz-kimyoy” majmuasi, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Dehqonobod kaliyli o’g’itlar zavodi, Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasi, “Hisor neft-gaz” kabi yirik ishlab chiqarish quvvatlari mamlakatimiz sanoatining lokomotivlari hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ham jadal rivoj topmoqda. Bugungi kunda yalpi hududiy mahsulotning 51,6 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ishlab chiqarilmoqda. Mehnat bilan band aholining qariyb 80 foizi shu tarmoqda daromad topmoqda. Qishloq xo’jaligida mo’l hosil yetishtirilmoqda, tarkibiy

Qashqadaryo viloyati yuksak iqtisodiy salohiyati, rivojlangan sanoati va qishoq xo’jaligi bilan O’zbekiston taraqqiyotida muhim o’rin egallab kelmoqda.

Sh. Mirziyoyev

ozgartirishlar davom ettirilmoqda. So'nggi besh yilda 3 ming 200 gektar paxta maydoni qisqartirilib, kartoshka, meva-sabzavot va poliz ekinlari yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Oxirgi uch yilda fermer xo'jaliklarining 22 foizdan ziyodi ko'p tarmoqli xo'jalikka aylantirilgan. Barcha sohalarda amalga oshirilayotgan ana shunday islohotlar natijasida keyingi besh yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi 2 barobar oshgan, hududiy eksport hajmi 100 million dollarga yetgan va 2011-yilga nisbatan 2,5 barobar ko'paygan. Bunday o'sish sur'atlari odamlarning turmush sharoitida, viloyatdagi shahar va qishloqlar qiyofasida namoyon bo'lmoqda. Birinchi Prezidentimiz rahbarligida Qarshi va Shahrisabz shaharlarida amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari bu ikki qadimiy shahar qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi. Qarshi shahrining hududi 9 ming gektardan 17 ming gektarga, Shahrisabz shahrining hududi 3 ming 300 gektardan 4 ming 900 gektarga kengaytirildi.

(4-jadval)

**Qashqadaryo viloyatidagi iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha YHM
tuzulmasi (2010-2017yy)**

Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017*
Yalpi hududiy mahsulot	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan								
YHMda sanoatning ulushi (qurulish bilan)	55,5	50,2	49,8	46,2	43,6	44,9	45,2	49,5
YHMda xizmatlar sohasining ulushi	26,1	30,2	30,5	32,5	34,4	34,4	36,3	41,6
YHMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi	55,0	56,2	51,4	51,4	51,5	51,6	51,7	45,0

(5-jadval)

Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hududiy jihatlari

(2013-yil, jamiga nisbatan foizda)

shahar va tuman nomi	Sanoat mahsuloti	HIM	Qishloq ho'jalik mahsuloti	Kapital qo'yilmalar	Pudrat ishlari	Chakana savdo	Pullik hizmat	Ekspost	Import
Qarshi sh.	9,3	43,3	0,9	22,7	30,3	33,2	18,6	23,3	59,2
Tumanlar:									
Dexqonobod	1,5	0,7	7,6	9,6	3,2	3,3	4,9	7,6	1,4
Kasbi	1,2	3,4	8,6	1,1	4,1	2,9	4,9	8,2	0,0
Kitob	0,6	12,5	9,5	1,9	6,2	3,3	5,2	0,6	0,8
Koson	2,8	1,0	7,2	2,2	5,8	7,5	7,1	10,3	0,4
Mirishkor	1,0	2,0	4,3	6,6	2,8	8,1	6,8	5,0	0,0
Muborak	45,2	0,8	6,7	25,4	6,3	3,2	4,4	2,3	16,8
Nishon	1,1	4,2	10,7	7,9	3,4	1,8	5,3	6,0	2,6
Chiroqchi	0,8	22,0	8,4	2,0	4,3	3,5	7,0	2,9	0,4
Shaxrisabz	3,0	4,0	8,4	2,0	7,7	6,8	8,2	4,8	0,8
Yakkabog'	0,9	2,2	8,4	2,7	5,8	8,6	6,7	3,9	0,2
Qamashi	1,3	1,7	9,2	2,1	4,7	6,3	6,8	6,7	0,3
Qarshi	1,7	1,7	6,7	2,9	8,2	7,7	6,9	7,1	1,7
G'uzor	23,3	1,7	6,7	10,9	7,2	2,5	6,8	11,5	15,4
Viloyat	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

2017-yil yakunlariga ko'ra, mintaqa yalpi hududiy mahsulotining 49,5 foizini sanoat (qurulish sohasi bilan birgalikda) ishlab chiqarish ta'minlagan. (2009-yilda- 46,1%). Qishloq xo'jaligining ulushi 8,9%, YHM da xizmatlar sohasining ulushi 41,6 foizni ta'minlaydi. Boshqa hududlarda bo'lganidek, bu yerda ham iqtisodiy islohatlarga katta e'tibor berilmoqda. Ammo viloyatda sanoat korxonalarini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish o'ziga hos

xususiyatga ega. Sababi, sa'noatning asosan yoqilg'i-energetikaga ixtisoslashganligi, yani strategik ahamiyat kasb etishi etishi tufayli nodavlat sektori bu sohada nisbatan pastroq. Kapital qo'yilmalarning eng katta qismi Muborak (25,4%)va G'uzor (10,9%) tumanlariga to'g'ri keladi. Qarshi shahrining investitsion salohiyati ham yuqori- 22,7%. Eng so'nggi yillarda Dexqonobod tumanida respublikamizda yagona kallyiy zavodini qurush munosabati bilan, bu hududga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari ham ortib bormoqda (9,6%). Shu bilan birga Chiroqchi, Kasbi, Qamashi, Kitob qishloq tumanlarida ushbu ko'rsatkichlar ancha past(3-jadval).

Hozirgi kunda qo'lga kiritilayotgan ulkan natijalarning muhim omili – O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin “o'zbek modeli” deb nom olgan va mashhur besh tamoyilga asoslangan taraqqiyot yo'limiz takror va takror to'g'ri yo'ldan ketayotganlimizni isbotlamoqda. Qashqadaryo oxirgi yillar davomida taraqqiyot yo'lida katta yutuqlarda erishmoqda. Ta'kidlash joizki, 2013 yil yakunida viloyatimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, amalda 105,6 foizni tashkil etdi, 2000 yilda 241 mlrd.so'mlik YaIM ishlab chiqarilgan bo'lsa 2012 yilda 7538,1 mlrd.so'mni, 2013 yilda 8828,1 mlrd.so'mni tashkil etdi. 2013 yilda sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish yalpi xududiy maxsulotning 37,4 foizini tashkil etib, sanoat maxsulotlarining o'sishi o'tgan yilga nisbatan 4,1 foiz, Qishloq ho'jaligi mahsulotlari yetishtirish 6,8 foiz, chakana savdo aylanmasi 15,6 foiz va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish 16,8 foizga barqaror yuqori sur'atlar bilan o'sdi. Joriy yilda ham bunday o'sish sur'atlari davom etmoqda. Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlarini birgina misolda, ya'ni 2000-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi bor-yo'g'i 18,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yildan 2017 yillar davomida bu ko'rsatkich o'rtacha 49,5 foizga yetganida yakqol ko'rish mumkin. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz yalpi sanoat mahsulotining qariyb 9,5 foizi aynan Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilmoqda. Sanoat mahsuloti umumiy o'sishining qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar tashkil etdi. Bugungi kunda

iqtisodiyotimizning lokomotiviga aylangan kimyo va neft-kimyo sanoati (75,9 foiz), oziq-ovqat sanoati (6,2 foiz), qurilish materiallari sanoati (1,8 foiz) 2013 yilda jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2013 yilda 13 foizga o'sdi, 2000 yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish axoli jon boshiga 22,6 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 219,3 ming so'mni tashkil etdi. Viloyat sanoati respublikada salmoqli o'rin egallaydi. O'tgan yilda 303 ta yangi sanoat korxonasi ishga tushirildi. Viloyatda mustaqillikning dastlabki yillarida 250 ta sanoat korxonalari tomonidan 57 turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lsa, respublika hukumati hamda iqtisodiyot vazirligining sanoat tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan islohotlari natijasida bugungi kunda viloyatda 2947 ta sanoat korxonalarida 60 ga yaqin turdagi (30 ta turda tayyor mahsulotlar) yangi tur mahsulotlari ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan. Bunday natijalarga erishishda viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan, mamlakatimiz iqtisodiyotining faxri bo'lgan yirik zamonaviy korxonalar katta hissa qo'shayotganini e'tirof etish lozim. Xozirgi kunda neft, gaz va kondensatdan jadal foydalanish bilan birga ximiya mahsulotlari, kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish kabi yangi tarmoqlar ham foydalanishga topshirilmoqda. Hududda amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalaridan "Muborak neft gaz" USHK, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, "Sho'rtan gaz kimyo" GKM, Dehqonobod "Kaliyli o'g'itlar zavodi", "Talimarjon" IES nafaqat respublikamizda, balki butun Markaziy Osiyoda ham eng yirik korxonalar sirasiga kiradi. Jumladan, Yiliga 125 ming tonna polietilen ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan Sho'rtan gaz-kimyo kompleksi negizida iqtisodiyotimizda mutlaqo yangi tarmoq – gazni chuqur qayta ishlash tarmog'i vujudga kelganini, ushbu korxonada yangi-yangi zamonaviy industrial majmualarni barpo etishda asosiy tayanch vazifasini bajarayotganini alohida ta'kidlash kerak. Yurtimizda shu sohaga mansub, umumiy qiymati 10 milliard dollardan ziyod bo'lgan yirik loyihalarni amalga oshirish, jumladan, Qashqadaryoda eng yuksak texnologiyalarga asoslangan Sho'rtan sintetik yoqilg'i ishlab chiqarish majmuasi, Muborak gaz-kimyo kompleksi kabi zamonaviy sanoat korxonalari shular qatoriga kiradi. Yirik investitsiya loyihasi asosida Talimarjon

Issiqlik elektr stantsiyasida yiliga 900 megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan ikkita bug'-gaz qurilmasini qurish ishlari boshlab yuborildi. Shuningdek, 2013 yilda "Dehqonobod kaliyli o'g'itlar" zavodida kaliyli ug'itlar ishlab chiqarish quvvatini oshirish (2-navbati) loyixasi, Tallimarjon IESni kengaytirish xisobiga 450 MVt quvvatli ikki bug'gazli qurilmasi qurilishiga va detander-generator qurilmasi qurilishiga, "ASIA TRANS GAS" O'zbekiston-Xitoy QK gazoprovod qurilishi loyixasiga, Marakand-Qarshi temir yo'l uchastkasini elektrofikatsiya ishlariga, "Yunitel" MCHJ, IP OOO Lukoilga "cotton Road" O'zbek-Amerika qo'shma korxonasi mablag'lar o'zlashtirilmoqda. 2013 yil yakuni bilan Tallimarjon IES-Sog'diana podstantsiya 500 kVli xavo liniyasi xamda Tallimarjon IESda ORU-500 kV quvvati 218 km va 3x167 ming kVtli loyixasining birinchi navbati foydalanishga topshirildi. Mustaqillik yillarida viloyatda, shuningdek paxta va g'alla mahsulotlarini qayta ishlash jadal rivojlana boshladi. Agar mustaqillikkacha paxta xom ashyosi faqat birlamchi qayta ishlanib, asosiy mahsulot-paxta tolasi deyarli to'liq viloyatdan olib ketilgan bo'lsa, mustaqillik yillari viloyatda kalava ip, trikotaj va mato ishlab chiqaradigan zamonaviy uskunalari bilan jihozlangan "Cotton-road", "Oqsaroy textile", "Yakkabog' oq oltin" OAJ kabi "Yakkabog' Xumo" teks, "ZAUS-SARDOR"i/ch korxonalari paydo bo'ldi va ular soni ko'paymoqda, mavjudlarining quvvati oshmoqda. 1991 yilda viloyatda bor yo'g'i 97 ta sanoat korxonasi (3,7 mlrd.so'm) mavjud bo'lgan bo'lsa 2014 yilda faoliyat yuritayotgan 2982 tani sanoat korxonalari tomonidan 6 oyda 2 trln 908 mlrd 6 mln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsuloti hajmi 108 foizni tashkil etdi. Jami sanoatdagi yuqori o'rinni egallagan yoqilg'i sanoati ulushi 2011 yilda 83,1 foizni tashkil etgan bo'lsa 2013 yilda 69,5 foizni tashkil etmoqda, yengil sanoatning ulushi 8,2 foizga 8,9 foiz, oziq-ovqat sanoatining ulushi 2011 yilda 4,7 foizdan 2013 yilda 6,2 foiz, qurilish materiallari sanoatining ulushi 2011 yilda 1,7 foizdan 2013 yilda 1,9 foizni tashkil qilmoqda. Xususan, 2013 yilda yoqilg'i sanoatida 1,6 foizga, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatida 57,5 foizga, qurilish materiallari sanoatida 16,3 foizga, oziq-ovqat sanoatida 20,5

foizga va yengil sanoatda 10,7 foizga o'sishga erishildi. 2013 yilda xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish hajmi 634,8 mlrd.so'mni, usish sur'ati 113 foizni tashkil etdi. Bu asosan tayyor oziq-ovqat iste'mol mollarining 12.9 foizga, (makaron, o'simlik yog'i, qayta ishlangan sut va sut mahsulotlari,pishloq va yog'li brinzalar ishlab chiqarish) va nooziq ovqat iste'moli mollarining 13,3 foizga, (alyumin kompozitli qoplamalar, tayyor kiyim kechaklar, energiya tejoychi lampochkalar) oshishidan ta'minlandi. Viloyatda Yengil sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 392 tani (93 tasi to'qimachilik, 13 tasi trikotaj mahsulotlari, 276 tasi tikuvchilik, 7 tasi ipakchilik mahsulotlari va 3 tasi paypoq mahsulotlari) tashkil etadi. Ushbu korxonalarda 2014 yilning 1 yanvar holatida yillik ishlab chiqarish quvvatlari kalava ip bo'yicha 11,2 ming tonnani, ip gazlama ishlab chiqarish bo'yicha 2,9 mln.kv.metrni, trikotaj mato bo'yicha 2,9 ming tonnani, tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish 4,0 mln.donani, paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha esa 1,1 mln. juftni tashkil etadi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidentining 2013 yil 2 avgustdagi "2013-2016 yillarda Qashqadaryo viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi PQ-2017 sonli qarori hamda 2013-2015 yillarda Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish dasturi va boshqa dasturlarga ko'ra 2013 yilning o'tgan davrida 303 ta korxonalar yangidan ishga tushirildi. Xozirgi kunda dasturda kuzda tutilgan lak buyoq mahsulotlari ishlab chiqaradigan "SAFIT CARB» qo'shma korxonasi, politelin mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha "Barakali Qashqadaryo savdo, "Meva-sabzavotni qayta ishlashga ixtisoslashgan "Go'zal savdo servis" MCHJ, meva danaklaridan va noan'anaviy moyli ekinlardan o'simlik yog'i ishlab chiqaradigan "Sevaz tabiiy sharbatlari" ShK, "Sevinch" xususiy firmasi (Kitob tumanida) sutni qayta ishlashga mo'ljallangan "Alibobo orzusi" xususiy korxonasi (Koson tumanida), tayyor kiyim kechaklar, tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan "Lola jaxon" "Likala furnitura" "Sanam" MCHJlari (Qarshi shahrida) pishiq g'isht ishlab chiqaradigan "Sangzar industriya" MCHJ (Kitob tumanida) korxonalari o'z faoliyatini boshladi. Qarshi shahrida "Radion silk" qo'shma korxonasi tomonidan

1,8 mln.doll. mablag' evaziga yiliga 120 tonna pillani qayta ishlash loyihalari amalga oshirildi. Dasturdagi loyihalarni amalga oshirilishi natijasida viloyatda 9 ta yangi turdagi (ko'mir briket, biogaz, tibbiyot gipsi, bint, elektr-maishiy tovarlar, oshlangan teri va bolalar o'yinchoqlari kabi) mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Ushbu dastur bo'yicha 2013 yilda 263 ta sanoat ishlab chiqarishi loyihalar ishga tushirilib, 4564 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Masalan, joriy yilning 6 oyida yalpi hududiy mahsulot hajmi 4 trln. 349 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,1 foizga oshgan, xususan, sanoat mahsulotlari hajmi 8 foizga, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish hajmi 5,7 foizga ko'paygan. Hisobot davrida viloyatda 30 ta yirik sanoat korxonasida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotidan 21 ta turida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sishga erishilgan. Hududiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 65,5 mlrd. so'mga ko'payib, uning jami viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi o'tgan yilning mos davridagi 15 foizdan 15,6 foizga yetgan. Hisobot davrida o'tgan yilning olti oyiga nisbatan 5,7 foizga ko'p xalq iste'moli mollari ishlab chiqarildi. Jumladan, oziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 4,5 foizga, nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ko'lami 7,9 foizga ortgan. 65 ta iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonasi yangidan ishga tushirildi va 32 ta korxonada modernizatsiya ishlari amalga oshirildi. Boshqa bir ahmiyatli raqamlarni ham keltirib o'tish o'rinli. Ayniqsa, Muhtaram 1-Prezidentimizning viloyat uchun alohida qabul qilgan "2013-2016 yillarda Qashqadaryo viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi 2017-sonli qaroriga asosan (qiymati 2,097 mlrd dollarlik 555 ta loyihalardan (13305 ta ish o'rni) 2013 yil va 2014 yilning 6 oyligida qiymati 513,6 mln dollarlik 352 ta loyiha ishga tushirilib, 5746 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Xususan, hisobot davrida 116 ta loyihalar, shundan 33 ta loyihalar tasdiqlangan tarmoq jadvalidan oldin ishga tushirildi. Viloyat sanoatidagi bunday ijobiy o'zgarishlarda imkoniyati, sharoiti, hatto iqlimi, xom ashyo zaxirasi inobatga olinib qabul qilinayotgan hududiy dasturlar asosiy omil bo'lib xizmat qilayotganini e'tirof etish darkor. Ayni paytda ijrosiga muhim e'tibor qaratilgan

mamlakatimiz 1-Prezidentining 2013 yil 2 avgustdagi “2013-2016 yillarda Qashqadaryo viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to’g’risida”gi qarori haqida to’xtalmoqchimiz. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan dastur doirasida viloyatda qiymati 2 mlrd 97 mln. dollarlik 555 ta loyihalarni amalga oshirish va 13305 ta yangi ish o’rinlari yaratish belgilangan. Dasturga kiritilgan loyiha egalariга amaliy yordam berish maqsadida, hukumat tomonidan tarmoq vazirliklarining tajribali mutaxassislaridan iborat Ishchi guruhi viloyatga kelib tashabbuskorlari bilan yuzma-yuz uchrashib, ularning kredit olish, loyiha smeta xujjatlarini tayyorlash va boshqa masalalarni hal etishga amaliy yordam berishmoqda.

2014 yil yakunlariga ko’ra viloyat umumiy tashqi savdo aylanmasi 524,6 mln.dollarni tashkil etib, 2013 yilga nisbatan 71,5 foizni tashkil etdi (2013 yilda 733,9 mln. doll). 2014 yilda 73 ta korxonalar tomonidan 257,8 mln.dollarlik eksport amalga oshirilib, o’tgan yilga nisbatan 83,6 foizni tashkil etdi (2013 yilda 71 ta korxonalar tomonidan 308,4 mln. doll. eksport amalga oshirilgan). Import hajmi 267,0 mln.dollarni tashkil etib, 2013 yilga nisbatan 62,7 foizni tashkil etdi (2013 yilda 425,5 mln. doll). Viloyat eksportining asosiy qismini paxta tolasi 46,0 foizni, energetika mahsulotlari 12,0 foizni va kimyo mahsulotlari 21,0 foizni tashkil etib, qolgan sohalar xizmatlar (12,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari (5,0 %), boshqalar (4,0%)ni tashkil etdi. Eksport tarkibida ayrim sohalarda o’tgan yilga nisbatan o’sish sur’atining kamayishini kuzatish mumkin. Buni quyidagicha izohlash mumkin: Viloyat importining esa asosiy qismini mashina va uskunalari 78,0 foizni tashkil etdi. Qolgan sohalar kimyo mahsulotlari 12,0 foizni, qora va rangli metallar 2,0 foizni, oziq - ovqat mahsulotlari 1,0 foizni, xizmatlar 2,0 foizni va boshqalar 5,0 foizni tashkil etdi. Joriy davr mobaynida dunyoning 100 dan ortiq davlatlari bilan viloyat korxonalari o’rtasida tashqi savdo faoliyati amalga oshirildi. Viloyat hududiy korxonalariga 2014 yil uchun 36,0 mln. dollar miqdorida eksport prognozi belgilangan bo’lib, amalda 38,5 mln. dollar miqdorida mahsulotlar eksport qilindi va belgilangan prognoz ko’rsatkich 106,9 foizga bajarildi. Ushbu ko’rsatkichlar qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari, tekstil mahsulotlari, qurilish

materiallari, kimyoviy o'g'it, charm maxsulotlari va xar-xil xizmatlar xisobiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari tayyor mahsulotlarning yangi turlarini eksport qilishni kengaytirish bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida 4 ta yangi turdagi mahsulot eksport qilindi. Xususan, eksport qiluvchi korxonalar soni, eksport hajmi va mahsulotlar turlarini ko'paytirish hamda eksport geografiasini kengaytirish hisobiga amalga oshirildi. Misol uchun, ushbu jarayonda hududiy tasarrufdagi eksportyor korxonalar tomonidan eksport geografiasini 3 ta davlatga, xususan Latviya, Janubiy Koreya va Hindistonga ko'paygan bo'lib, qo'shimcha 7 xil (Dehqonobod tumanidagi "Nargis Sarvar" xususiy tadbirkor tomonidan Hindiston davlatiga farmatsevtik tabiiy shillak xom-ashyosi, Koson tumanidagi "Ne'mat bobo RA" korxonasi va "Oltin voha agroinvest" MCHJ tomonidan Latviya davlatiga poliz mahsuloti (qovun), "Koson Don qabul qilish" OAJ tomonidan polietilen qoplar, "Qamashi Don" OAJ tomonidan ham polietilen qoplar, Qarshi shahridan xususiy tadbirkor Karimova Xafiza Ivanjanovna tomonidan yuk avtomobil qismlari (tyagach) va xususiy tadbirkor Qoraev Zafar Zokirovich tomonidan kompyuter ehtiyot qismlari) turdagi mahsulotlar tashqi bozorga yetkazib berilgan. Xullas, Qashqadaryo viloyatida 2013-2016-yillar mobaynida sanoat salohiyatini o'sishini ta'minlovchi amaldagi strategiya davom ettirilmoqda, buning uchun mavjud zaxira va imkoniyatlardan unumli foydalanilmoqda.

(6-jadval)

Qashqadaryo viloyatidagi iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha YHM tuzulmasi

(o'tgan yilga nisbatan % da) (2010-2017yy)

Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
YHM	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan								
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	92,8	90,4	91,8	91,7	91,1	90,8	93,5	91,8
Mahsusulotlarga sof soliqlar	7,2	9,6	8,2	8,3	8,9	9,2	6,5	8,2
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qishloq xo'jaligi	18,4	19,6	19,7	21,3	22,0	20,7	18,5	8,9
Sanoat qurulish sohasi bilan birga	55,5	50,2	49,8	46,2	43,6	44,9	45,2	49,5
Xizmatlar	26,1	30,2	30,5	32,5	34,4	34,4	36,3	41,6
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	55,0	56,2	51,4	51,4	51,5	51,6	51,7	45,0

IQTISODIY XARTA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QASHQADARYO VILOYATINING SALMOGI
(foiz hisobida, 2012 y.)

Hududi	6,4
Aholi soni	9,4
Yalpi ichki mahsulot	7,8
Sanoat mahsuloti	11,0
Qishloq xo'jaligi mahsuloti	8,7
Don ekinlari ekin maydoni	14,5
Paxta ekin maydoni	12,4


Sanoatning asosiy tarmoqlari: elektroenergetika, yoqilg'i (nerfiti va gazli), kimyo va gaz-kimyo, qurilish materiallari, metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlari, qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari: donchilik, paxtachilik, bog'dorchiilik va uzumchilik, go'sht-sut chorvachiligi, qo'ychilik, ipakchilik.

SHAHAR VA QISHLOQ AHOILISINING SONI
(foiz hisobida, 2012 y.)

shahar	43,3
qishloq	56,7

SANOAT VA QISHLOQ XO'JALIGI YALPI MAHSULOTLARINING HAJMI
(mild. so'm, 2012 y.)

sanoat	5589,9
qishloq xo'jaligi	2111,4



SHARTLI BELGILAR

- QISHLOQ XO'JALIGINING IXTISOSLASHUVI**
- Shahar atrofi xo'jaligi: sabzavotchilik, bog'dorchiilik, uzumchilik va sut-go'sht chorvachiligi
 - Paxtachilik, donchilik, bog'dorchiilik, ipakchilik, asalarichilik, sut-go'sht chorvachiligi
 - Sabzavotchilik, bog'dorchiilik, uzumchilik, mevachilik, asalarichilik, sut-go'sht chorvachiligi
 - Lalmi dehqonchilik zonasida
 - Don ekinlari, ba'zi yerlarda texnik ekinlar va go'sht-sut chorvachiligi
 - Cho'l-yaylov zonasida
 - Cho'l-yaylov chorvachiligi (asosan qorako'ichilik)
 - Tog'-yaylov zonasida
 - Tog'-yaylov chorvachiligi (go'sht-jun qo'ychiligi va go'sht-sut chorvachiligi), daryo vodiylarida bog'lar va uzumzorlar
 - Qo'riqlanadigan yerlar
- ENG KOP TARQALGAN RAYONLAR**
- ingichka tolali g'o'za
 - g'o'za
 - poliz ekinlari
 - bug'doy
 - tokzorlar
 - qorako'l qo'ylarini urchitish
 - hissor qo'ylarini urchitish
 - asalarichilik
 - parrandachilik
 - cho'chqachilik
 - sigirlarni urchitish
 - yirik shoxli qoramollarni urchitish
 - RAYONLAR
 - o'rmonlar
 - beda
 - don-dukkaklar
 - yong'oqzorlar
 - don-dukkaklar
 - o'rmonlar
 - bed

- ISHLOV BERUVCHI SANOAT (2012 y.)**
Yalpi mahsulot hajmiga ko'ra sanoat punktlari
- Juda yirik
 - Yirik
 - O'rta
 - Kichik
 - Mayda
- Sanoat tarmoqlari**
- Elektroenergetika
 - Yoqilg'i
 - Mashinasozlik va metallni qayta ishlash
 - Kimyo va gaz-kimyo
 - Qurilish materiallari
 - Yengil
 - Oziq-ovqat mahsulotlari
 - Boshqa tarmoqlar
 - Gidroelektr stansiyasi
 - Issiqlik elektr stansiyalari
 - Elektr uzatish tarmoqlari
- UNDIRUVCHI SANOAT**
- Neft
 - Neft va tabiiy gaz
 - Tabiiy gaz
 - Marmar
 - Mineral suv buloqlari

Sanoatining tarmoqlar tarkibi.

2017-yil yakunlariga ko'ra, sanoatning ichki tuzulishi quyidagicha: yoqilg'i sanoatining ulushi (mahsulot qiymati bo'yicha) -53% ni, kimyo va neft-kimyo sanoati 1,5% ni, mashinasozlik va metallni qayta ishlash- 0,4% ni, yog'ochni qayta ishlash va qog'oz-selluloza sanoati -0,3% ni, yengil sanoat-16,3 %, oziq- ovqat -16,3 ni, boshqa tarmoqlar esa 12,0% ni tashkil etgan. Taqqoslash uchun: 2000-yilda yuqoridagi ko'rsatkichlar, mos holda, 56,5; 18,1; 9,2; va 2,6 foizni tashkil qilgan. Bu ham bo'lsa, viloyat iqtisodiyotini industuriyalashtirishning natijasi sanaladi. Yalpi hududiy mahsulotning ichki tarkibi ham uning iqtisodiyotini tobora inustriyal-agrarga yo'nalishga o'tib borishdan dalolat beradi. Jumladan, 2008-yilda yalpi milliy mahsulotning 33,0 foizi sanoat ishlab chiqarishga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2010-yil 40,7 foizga barobar bo'lgan (2013-yil -37,4%). Bazi boshqa mintaqalarga qaraganda bu yerda qishloq xo'jaligining ulushi pastroq -19,5%, vaholanki bu ko'rsatkich Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida bundan deyarli ikki marta ziyod. Ayni, vaqtda bu yerda mashinasozlik sust rivojlangan; kimyo va elektr-energetika sanoatiga katta e'tibor berilmoqda. Sho'rtangaz majmuasi, Dehqonobod kaliy zavodi, birinchi navbati ishga tushirilgan Tollimarjon IES fikrimizni tasdiqlaydi. Shuningdek viloyat energetika bazasida Muborak issiqlik energetika markazi ham muhim o'rin tutadi.

2017-yil sanoat mahsuloti 2016-yilga nisbatan, taqqoslama narxlarda 4,1 foizga ko'paygan (respublikada- 8,8%). Viloyatda jami 425ta sanoat korxonalari mavjud bo'lib, yiriklari 38 ta. Bir yilda taxminan 1,0 -1,5 mln tonna neft, 50-52 mlrd.m³ tabiiy gaz, 1,3 -1,5 mln tonna atrofida gaz kondensati (suyultirilgan gaz) 400 ming tonnaga yaqin o'yingugurt, 130 ming tonna polietilen, 2 mln m² ip gazlama, 146-150 ming tonna paxta tolasi , 30-31 ming tonna o'simlik yo'g'i ,20-25 mln tonna .shartli banka konserva, 205 ming tonna un va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarildi. Qashqadaryo viloyatidagi alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasini 2010-2016 yillar holatiga ko'ra o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili shundan dalolat beradiki, iqtisodiy

faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2010-yilda 97,5 foiz o'sish suratiga erishilgan bo'lsa, 2017-yil yanvar holatiga ko'ra 103 foiz o'sish ta'minlangan. Ishlab chiqarish sanoati korxonalarining 2010-yilda o'sish tendensiyasi 110,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yil yanvar holatiga ko'ra 109,0 foizni tashkil etgan. O'tgan yilga nisbatan kamayish kuzatilgan.

Nisbiy ko'rsatkichlarga hisoblaganda, qolaversa, Qashqadaryoga O'zbekistonda qazib olinayotgan neftning (gaz kondensati bilan birga) 95 foizi, tabiiy gazning 92 foizi, oltingugurtning va kaliy o'g'itining deyarli 100 foizi to'g'ri keladi. Shu o'rinda qayd etish joizki, avvalgi yillarda mutloq ko'rsatkichlari ancha yuqori bo'lgan. Masalan 2000- yilda neft qazib olish 3,6-4,0 mln tonna, suyultirilgan gaz 3,5 mln tonna, ip – gazlama 5,0 mln kv metrdan ziyodroq, konservalar 75 mln shartli bankani tashkil qilgan; faqat paxta tolasi va o'simlik yog'ini ishlab chiqarish keyingi davrda ko'paygan.

Bundan xulsa qilish mumkinki, viloyatning yoqilg'i sanoatidagi "siljishlar" Respublika umumiy yoqilg'i-energetika sanoati holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, ip-gazlama meva konservalar ishlab chiqarish hajmining qisqarishini ham ijobiy baholab bo'lmaydi. Paxta xosilining, jumladan, paxta tolasini ishlab chiqarishni ortib borishiga qaramasdan uni qayta ishlash hajmi, ip-gazlama mahsulotlarini tayyorlash ancha katta miqdorda qisqargan. Albatta bu yerda ham vaziyat qoniqarli emas.

Sanoatning hududiy tashkil etilishida Qarshi, Shahrisabz tugunlari katta ahamiyatga ega; Muborak (IEM, gaz- kimyo majmuasi), Koson (yog'-ekstrakt, paxta tozalash, g'isht zavodi), Sho'rtan (neft- gaz- kimyo), Tollimarjon (IES), Ko'kdumaloq (neft), Chiroqchi (konserva zavodi), Dexqonobod (kaliy zavodi) va boshqa sanoat maskanlarining ahamiyati ham oshib bormoqda. Qarshi, Qamashi va Shaxrisabz to'qimachilik korxonalari ("Oqsaroy-to'qimachi" KK, ipakchilik), aksariyat tuman markazlarida paxta tozalash korxonalari mavjud.

Viloyatda gaz kodensatini Muborak neft- gaz konlari, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, “Sho’rtan neft-gaz” sho’ba korxonasi, Sho’rtangaz kimyo-majmuassi hamda “Hisor neft-gaz” qo’shma korxonalari ishlab chiqaradi. Ularning orasida gaz kondensati bo’yicha Muborak neft-gaz konlari boshqarmasi va Sho’rtan neft-gaz, neft va tabiiy gaz qazib olishda, Muborak neft-gaz konlari yetakchilik qiladi. Suyultirilgan gazning yarmiga yaqinini Sho’rtangaz kimyo majmuassi yetkazib beradi, ikkinchi o’rinda Sho’rtan neft-gaz sho’ba korxonasi turadi. Olingugurtning deyarli 100 foizga yaqinini muborak neftni qayta ishlash zavodi ta’minlaydi. Qashqadaryoda yengil sanoat sohasida modernizatsiya ishlari 2013-2014-yillarda ham ijobiy amalga oshirildi. Viloyatda Yengil sanoat sohasida faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar soni 392 tani (93 tasi to’qimachilik, 13 tasi trikotaj mahsulotlari, 276 tasi tikuvchilik, 7 tasi ipakchilik mahsulotlari va 3 tasi paypoq mahsulotlari) tashkil etadi. Ushbu korxonalarda 2014 yilning 1 yanvar holatida yillik ishlab chiqarish quvvatlari kalava ip bo’yicha 11,2 ming tonnani, ip gazlama ishlab chiqarish bo’yicha 2,9 mln.kv.metrni, trikotaj mato bo’yicha 2,9 ming tonnani, tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish 4,0 mln.donani, paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish bo’yicha esa 1,1 mln. juftni tashkil etadi. Yengil sanoat korxonalari tomonidan 2013 yilda ishlab chiqarish hajmi 2012 yilga nisbatan 10,7 foizga o’sdi. Bu asosan Tayyor kiyim kechaklar ishlab chiqarish 114,2 foizga, kalava ip ishlab chiqarish hajmi 111,7 foizga oshishi hisobidan ta’minlandi. Oziq-ovqat sanoatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2012 yilning shu davriga nisbatan 20,5 foizga o’sdi. Jumladan, tozalangan o’simlik moyi ishlab chiqarish hajmi 1,4 martaga, qayta ishlangan sut mahsulotlari 101 foizga, Pishloq va yog’li brinzalar ishlab chiqarish 108 foizga, sariyog’ ishlab chiqarish 104,3 foizga, makaron ishlab chiqarish hajmi 105,4 foizga o’sishi hisobidan ta’minlandi. 2013 yilda 7 ta 1330 tonna meva-sabzavotni qayta ishlash korxonasi tashkil etildi, natijada ularning soni 2014 yil 1 yanvar holatida 26 taga yetdi . Ushbu korxonalar tomonidan 2013 yilda yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlarining 23,5 foizi qayta ishlanib, o’tgan yilga nisbatan 0,8 bandga o’sishga erishildi. Sut va gushtni qayta ishlash bo’yicha 2013 yil 1 yanvar holatida

83 ta korxonalar mavjud bo'lib, 13 ta 1115 tonna sutni qayta ishlovchi va 6 ta 360 tonna go'shtni qayta ishlovchi korxonalar tashkil etildi, natijada sut va go'shtni qayta ishlovchi korxonalar soni 102 taga yetdi. Bundan tashqari, 2013 yilda 6 ta sut va sut mahsulotlarini qayta ishlovchi, 1 ta go'sht va go'sht mahsulotlarini qayta ishlovchi 1 ta meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda modernizatsiya ishlari amalga oshirildi. Aholining qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari ta'minotini yanada yaxshilash maqsadida meva-sabzavot, go'sht mahsulotlarini qayta ishlash, non va non mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmoqda. Kitob tumanidagi "SHahrisabz mevalari" MCHJ, "East agro international" MCHJlarda mevani qayta ishlash loyihalari amalga oshirildi. Viloyatda yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlarining 23 foizi qayta ishlandi va o'tgan yilga nisbatan 1,9 bandga o'sishga erishildi. Dastur asosida sut va go'sht mahsulotlarini qayta ishlash loyihalarini amalga oshirilishi natijasida bu yo'nalishdagi korxonalar ko'payib, sutni qayta ishlovchi korxonalar va go'shtni qayta ishlash korxonalar soni ko'paymoqda. Bundan tashqari sut va sut mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda moder nizatsiya ishlari amalga oshirildi. Jumladan, Koson tumanidagi "Koson yog'-ekstraktsiya" OXJda yiliga 150 tonna sut va sut mahsulotlari, Yakkabog' tumanidagi Oqtosh kelajagi" MCHJda 160 tonna go'shtni qayta ishlash, "Kumush kuz fayzi" MCHJda 150 tonna kolbasa ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi. Natijada, joriy yilning o'tgan davrida ishlab chiqarilgan go'sht mahsulotining 12,4 foizi, sutning 11,4 foizi qayta ishlandi va o'tgan yilga nisbatan 0,8 foiz o'sishga erishildi. Yengil sanoat va noziq-ovqat sohasida 35 ta loyiha amalga oshirildi, jumladan Koson tumanidagi "Bunyodkor" MCHJ, "Yakkabog' Xumo teks" MCHJda yiliga 300 tonna kalava ip ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi. Viloyatdagi yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish orqali eksportbop zamonaviy tayyor gazlama va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha umumiy qiymati 100 million dollardan iborat bo'lgan 82 ta loyihani amalga oshirish belgilangan. Bu esa 2016 yilga borib, viloyatda yetishtiriladigan paxta tolasini qayta ishlash hajmini hozirgi 6 foizdan 35 foizga yetkazish va eng muhimi, 4 mingta yangi ish o'rni yaratish

imkonini beradi. So'nggi yillarda barcha joylarda bo'lgani kabi viloyatda ham infratuzilmani yaxshilash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Markazni chekka hududlar bilan bog'lovchi aloqa yo'llari zamon talablari dajarasiga keltirilmoqda. Qilingan ishlar samarasi o'laroq, bugun viloyatning investitsiyaviy jozibadorligi oshayapti. Natijada xorijiy investorlar nafaqat viloyat yoki tuman markazlarida, balki qishloqlardagi ishlab chiqarish sub'ektlari bilan ham sheriklik munosabatlarini o'rnatishga qiziqish bildirmoqda. 2013 yili hududga kiritilgan markazlashmagan va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 276 milliard 296 million so'mni tashkil qiladi. Ularning asosiy qismi aloqa va kommunikatsiya, sog'liqni saqlash, neft-gaz sohalari hamda qo'shma korxonalar (12 milliard 717 million so'm)ga yo'naltirilgan. 2013 yil 1 iyul holatiga ko'ra viloyatimiz bo'yicha jami xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 60 ta xo'jalik sub'ekti ro'yxatdan o'tgan, mavjud korxonalarining 46 tasi faoliyat ko'rsatmoqda. 2013 yilda mazkur korxonalar tomonidan 1 trillion 348 milliard 703 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Ushbu korxonalar hozirgi kunda turli iste'mol tovarlari, yengil sanoat mahsulotlari, qurilish materiallari (asfalt, beton, polimer, mikrokalsit, bo'yoq), mashinasozlik (moy sovutish radiatorlari ishlab chiqarish, "Avtotraktor Radiator" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi), xizmat ko'rsatish (avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va yuk tashish, "SERGORUS-UZ" O'zbekiston-Litva qo'shma korxonasi), qishloq xo'jaligi hamda neft-gaz tarmoqlarida ishlamoqda. Shuningdek, xorijiy hamkor davlatlar soni 23 tani tashkil etadi. Ular orasida AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Misr, Rossiya, Singapur, Xitoy, Shveytsariya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar bor. 2014 yilda xorijiy sarmoya ishtirokidagi tadbirkorlik sub'ektlari soni yana 2 taga ko'paydi. Qarshi shahrida polimer quvurlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Saturn Plast" O'zbekiston-Xitoy va elektr o'lchov uskunalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Ekspress avtomatika" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonalarini ta'sis etildi. Mustaqillik yillarida yurtimizda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirildi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonun yo'li bilan keng ko'lamdagi imtiyozlar, afzalliklar va kafolatlar tizimi yaratildi. 1-

Prezidentimizning 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan xorijiy investorlarga muayyan qulayliklar yaratildi. Xususan, 2005 yilning 1 iyulidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan va 20 turdagi (2012 yil II chorakdan boshlab) iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalar yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va obodonlashtirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilingan.

Yaratilgan imkoniyatlar natijasida viloyatda yildan-yilga xorijiy investorlar bilan hamkorlik aloqalari kengayib bormoqda, ular tomonidan kiritilayotgan sarmoyalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qilayotir. Bunday istiqbolli loyihalar yuzlab yangi ish o'rinlari yaratish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish imkonini beradi.

"Guzor Yi Jie" 2013 yili xitoylik ishbiarmon tomonidan kiritilgan 283 ming AQSh dollari miqdoridagi investitsiya hisobiga barpo etildi. Bu yerda o'rnatilgan zamonaviy texnologiyalar har oyda 4 million dona pishiq g'isht ishlab chiqarish quvvatiga ega. 40 nafarga yaqin kishi ish bilan ta'minlandi.

Ma'lumotlarga qaraganda, respublikamizda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 4 mingdan ortiq korxonalar tashkil qilingan va muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Har yili 3 milliard AQSh dollaridan ko'proq, asosan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilmoqda, bu mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiya umumiy hajmining 26 foizdan ko'prog'ini tashkil qiladi. Bu esa xorijiy investorlarning mamlakatimiz iqtisodiyoti barqarorligi va pishiq-puxtaligiga, uni rivojlantirish istiqbollari qiziqishi hamda ishonchi ortib borayotganligidan yaqqol dalolat beradi. Yengil sanoat sohasida 783,3 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, ishlab chiqarish hajmi 2013 yilning shu davriga 112 foizga o'sdi. Bu asosan

Tayyor kiyim kechaklar ishlab chiqarish 2094 mln so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 2,5 martaga, Kalava ishlab chiqarish xajmi 5033 tonnani tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 103,9 foizga, Trikotaj buyumlari ishlab chiqarish xajmi 1301 ming donani tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 103,9 foizga oshishi hisobidan ta'minlandi. Oziq-ovqat sanoati sohasida. Ushbu korxonalar tomonidan joriy yilda 561,7 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 2013 yilning shu davriga nisbatan 99,4 foizni tashkil kildi. Bu kamayish ushbu soxaga tegishli 2 ta sanoat korxonasida ("Qarshi yog' ekstraktsiya" XJ korxonasida 2,4 mlrd so'm va "Koson yog' ekstraktsiya" XJda 2,0 mlrd sum) ishlab chiqarish xajmi maxsulot ishlab chiqarish uchun xom- ashyoning yetishmasligi sababli 4,4 mlrd sumga kamaytirganligidan kelib chiqdi. Shunday qilib, Qashqadaryo viloyati yengil sanoati tarmoqlarini tarkibiy o'zgartirish, diversifikatsiya qilish va yangilash jarayonlari natijasida samarali ishlar davom ettirilmoqda.

Jami sanoat mahsulotining 9,3 foizi viloyat markazi- Qarshi shahriga to'g'ri keladi. Muborak tumanida sanoatni mujassamlashuv ko'rsatkichi bundan ham yuqori- 45,2foiz. Shuningdek G'uzor tumanida sanoat ishlab chiqarishi yuqori darajada -23,3foiz. Bu ikki qishloq tumani viloyat markazi bilan birgalikda jami sanoat mahsuloti hajmining 78foizini beradi (4-jadval). Qolgan hududlarda sanoat sust rivojlangan. Bu borada biroz Shaxrisabz va Koson tumanlari ajralib turadi. Dexqonobodda esa ushbu makroiqtisodiyot tarmog'i yaqin yillarda rivojlanib boradi.

Qashqadaryo viloyati demografik vaziyati, aholisining tez ko'pyib borishi xalq istemol mollari ishlab chiqarish ko'lamini oshirishni toqazo etadi. 2013-yida, aholi jon boshiga hisoblaganda, istemol mollarini ishlab chiqarish oldingi yilga nisbatan 108,8 foizga ko'paygan. Agar aholi sonining bu davrdagi 2,1 foizga ortganini hisobga olsak, istemol mollarini ishlab chiqarish ustuvor darajada ko'payib borishining guvohi bo'lamiz. Ko'rilayotgan yilda mebel, xo'jalik sovuni, go'sht va go'sht mahsulotlari, mineral suv ishlab chiqarish hajmi ancha ko'paygan.


Hususan, trikotaj mahsulotlari tez ko'paygan. Biroq, o'simlik yog'i 2008-yildagi 35,1ming tonnadan 2013-yilda 30,5 ming tonnagacha kamaygan.

HIM ishlab chiqarish bo'yicha Qarshi shahri, Shahrisabz va Koson tumanlari oldinda. Ayni shu hududlarda yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari yaxshiroq rivojlangan. Ularning hissasiga viloyatda olingan HIM 77,8% to'g'ri keladi. (jumladan, Qarshi shahriga-43,3%). Bu soha, ayni paytda Dexqonobod, Nishon, kasbi tumanlarida juda past.

(7-jadval)

Qashqadaryo viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari.

Tarmoqlar nomi	Yillar						
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
<i>Shu jumladan tarmoqlar tarkibi bo'yicha</i>							
Yoqilg'i	75,9	70,4	73,5	65,4	58,1	56,6	53,0
Kimyo va neft kimyosi sanoati	0,60	2,20	2,3	1,5	1,6	2,0	1,5
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	0,2	0,3	0,7	0,4	0,4	0,3	0,4
Yog'oshni qayta ishlash va qog'oz-selluloza sanoati	0,1	0,2	0,4	0,5	0,8	0,3	0,1
Qurulish materiallari sanoati	1,2	1,5	1,5	1,7	1,8	1,7	1,9
Yengil sanoat	7,9	8,8	7,5	8,7	14,4	15,5	16,3
Oziq-ovqat sanoati	4,2	5,4	4,3	10,2	11,1	12,3	14,6
Boshqa tarmoqlar	9,9	11,2	9,8	11,6	11,8	11,3	12,0



Qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlar tarkibi.

Viloyatda agrar soha ham yaxshi rivojlangan. 2009-yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda yaratilgan, qishloq xo'jaligi mahsuloti oldingi yilga nisbatan 6,8 foizga ortgan, (2010-yilda -7,1foizga). Jami mahsulot hajmida dexqonchilik 52,8 foizni tashkil qiladi. Umumiy hajmda mintaqa O'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotining 8,5 foizini beradi.

Qashqadaryo viloyatining umumiy yer maydoni 2857 ming ga, qishloq xo'jaligida foydaniladigan yerlar, jami maydonga nisbatan, 76,8%. Sug'oriladigan yerlar 461 ming ga yoki qishloq xo'jaligida foydaniladigan hamma yerlarning 21,0 foizi demakdir. Bunday yerlar ulushi Kasbi tumanida eng yuqori -90,8%; ikkinchi o'rinda Qarshi tumani turadi-66,4%. Muborak, Shazrisabz, Yakkabog', Chiroqchi va ayniqsa, Dexqonobod tumanida juda past (atigi 1,0 foizga yaqin). Jami ekin maydoning 2/3 qismiga yaqinini fermer xo'jaliklarida. Qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar tarkibida ekin maydonlari 31,1 foizni tashkil qiladi. Bu xususda Kasbi (87,0%), Chiroqchi (51,2%), Qarshi (67,0%) tumanlari oldinda, Muborak (13,1%), Dexqonobod (15,9%) va Mirishkor (20,0%) oxirgi o'rinlarda turadi. Dexqonobod tumani qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarning 82,6% yaylov va pichanzor bilan band. Muborak, Mirishkor, G'uzor tumanlarida ham bunday yerlar ko'p. (5-jadval).2013-yilyakunlari bo'yicha viloyatda jami ekilgan maydonlar 479 ming ga bo'lgan. Shundan donli ekinlar 236 ming ga bo'lib, yalpi hosil 913 ming tonnani tashkil etgan. Shu yilda 218 ming gektarga bug'doy ekilgan, yalpi hosil-932 ming tonna, hosildorlik-45,9 s/ga (2009-yilda 982 ming tonna, hosildorlik-44,7 s/ga) ni tashkil etgan. Hosilning 87,8 foizi fermer xo'jaliklarida yetishtriladi. Bug'doy barcha tumanlarda, shuningdek, Chiroqchi, Qamashi va Yakkabog' tumanlarida lalmikor yerlarga ekiladi. Yakkabog' tumanida tashkil etilayotgan «Qorabayir otchilik majmuasi» xo'jaligi naslchilikni saqlash va rivojlantirish, qorabayir zotli otlarni ko'paytirishga ixtisoslashgan. Majmuada 200 tagacha yilqi boqilib, ichki va tashqi bozorga sotiladi. Koson tumanida barpo etiladigan chorvachilik kompleksi esa Koson tumanida barpo

etiladigan chorvachilik kompleksi esa 2000 bosh qoramol boqishga mo'ljallangan. Majmua qurilishi uchun 12 gektar, chorva mollariga ozuqabop ekinlar yetishtirish uchun 750 gektar yer maydoni ajratiladi. Bu yerda yiliga 4280 tonna sut va 210 tonna go'sht yetishtirish ko'zda tutilgan. Nishon tumanida Vetnam texnologiyasi asosida baliq yetishtirishga ixtisoslashgan agrofirma tashkil etilmoqda. Agrofirma viloyatdagi baliqchilik xo'jaliklariga o'z faoliyatini samarali tashkil etishi uchun mashina-mexanizm xizmatlari, baliq uvildiriqlari, omuxta yem yetkazib beradi. Yetishtirilgan baliqni sotish yoki qayta ishlashni yo'lga qo'yadi. Agrofirmada baliq uvildiriqlari yetishtirilib, suv omboriga o'tkaziladi. Yiliga 500 tonna baliq qayta ishlovchi agrofirmada baliq chavoqlari yetishtiruvchi inkubatsion sex, 600 tonnalik muzlatkich, baliq mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar, 800 tonna maxsus omuxta yem ishlab chiqaruvchi sex tashkil etilishi rejalashtirilgan. Qamashi tumanida 5 ming kurka boqishga mo'ljallangan majmua tashkil etiladi. Gollandiyadan keltiriladigan mahsuldor zot va zamonaviy texnologiyalar asosida majmuada yiliga 20 ming kurka jo'jasi yetishtirilib, aholiga yetkazib beriladi. Uni joriy yilning dekabr oyida ishga tushirish, 30 ish o'rni yaratish mo'ljallanmoqda. Mazkur loyiha samarasida har bir xonadonga 100 tadan kurka jo'jasi tarqatilishi oilalar daromadini oshirishda muhim o'rin tutishi ta'kidlandi. Qamashi tumanida quyon yetishtirish, quyon go'shti va terisini qayta ishlashga ixtisoslashgan xo'jalik tashkil etilmoqda. «Qamashi momiq quyonlari» agrofirmasi tomonidan amalga oshirilayotgan ushbu loyiha samarasida 30 ming quyon yetishtirilib, yiliga 120 tonna go'sht va 40 ming dona teri tayyorlanadi. Xo'jalikda 30 kishi ishlaydi. Bundan tashqari, quyonlar 500 xonadonga tarqatiladi. Aholi parhez go'sht va qo'shimcha daromad bilan ta'minlanadi.

Qishloq xo'jaligining ikkinchi yetakchi ekini-paxta 163ming gektarni egallaydi. (2008-yilda 173ming ga, 2000-yilda 150 ming ga). 2013-yilda 424 ming tonna paxta yetishtirilgan, hosildorlik- 26,0s/ga bo'lgan.

(8-jadval)

Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish dasturi doirasida amalga oshiriladigan loyihalar.

Turlari	Loyihalar soni		O'lchov birligi	Loyihalarni amalga oshirish	
	2016-yil	2017-yil		2016-yil	2017-yil
Intensiv bog'lar	232	77	ga	1309	1362
Yangi tokzorlar	160	24	ga	645	1101
Bog' rekonstruksiya	12	5	ga	19	28
Tok rekonstruksiya	7	14	ga	14	12
Issiqxona (f.x)	67	37	ga	14	26
Issiqxona (aholi tamarqalarida)	159	85	ga	35	61
Muzlatkichli omborxonalar	40	43	tonna	14440	30690
Qaytaishlashni tashkil qilish	62	135	tonna	21347	32021
Jami					
Qoramolchilik	753	316	Bosh	8077	12712
Parrandachilik	163	57	ming bosh	947	1460
Baliqchilik	142	46	ga	507	1100
Asalarichilik	149	31	Oila soni	9390	4220
Qo'ychilik	167	60	Bosh	11861	15417
Echkichilik	75	3	Bosh	5886	1060
Jami					

Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligida foydaniladigan yerlar.

Qishloq tumanlari	Maydoni, ming ga	Qishloq xo'jaligida foydaniladigan yerlar	Shu jumladan sug'oriladigan yerlar, ming ga	Qishloq xo'jaligida foydaniladigan yerlarga nisbatan, foizda:			
				Ekin yerlar	Ko'p yillik daraxtzorlar	Bo'z yerlar	Pichanzor va yaylovlar
Dexqonobod	395,7	279,8	2,2	15,9	0,2	1,3	82,6
Kasbi	73,5	231,9	46,3	87,0	3,7	-	9,3
Kitob	174,2	51,1	46,3	21,3	7,0	1,4	70,3
Koson	188,1	102,7	16,0	51,0	1,7	1,8	45,5
Mirishkor	312,5	143,9	66,4	20,0	0,5	0,7	78,8
Muborak	307,0	277,3	58,5	13,1	0,3	-	86,6
Nishon	211,1	261,8	33,0	33,2	1,3	-	65,5
Chiroqchi	283,7	156,3	53,9	51,2	1,2	3,4	44,3
Shahrisabz	166,7	240,7	25,4	24,4	4,4	0,4	70,7
Yakkabog'	134,9	100,2	22,1	39,0	5,0	2,2	53,8
Qamashi	245,7	179,0	29,6	35,1	1,1	0,4	63,3
Qarshi	91,7	65,9	30,3	67,0	4,2	1,3	27,5
G'uzor	265,2	231,9	43,8	26,6	0,4	0,3	72,7
Viloyat	2856,8	2195,3	461,4	31,1	1,6	1,0	66,3

Manba: "O'zbekiston Respublikasi yer fondi"- T.: O'z R Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi, 2011, - 94- bet ma'lumotlari.

G'alla va paxta yetishtirish bo'yicha Qashqadaryo respublikamizda birinchi o'rinda turadi. Kartoshka 7,0 ming gektar yerga ekilgan, yalpi hosil 126ming tonna; sabzavot maydoni 15,0 ming ga, hosil 398ming tonna; poliz ekinlari 6,5

ming ga va yalpi hosil 111 ming tonnage teng bo'lgan. Yem hashak ekinlari 42,8 ming getarni egallaydi, uning yarmidan ko'prog'i beda bilan band. Mevazorlar maydoni -12,4 ming ga, yalpi hosil-89 ming tonna. Bog'dorchilik tog'va tog' oldi hududlarida joylashgan. (Shaxrisabz, Yakkabog', Kitob, Qamashi va boshqalar) tumanlarda rivojlangan. Bu yerlarda uzum yetishtirish ham yo'lga qo'yilgan, uning umumiy maydoni 7,1 ming ga, yalpi hosil 69 ming tonna bo'lgan. Kitob tumanlari o'zining anorlari (Varganza va boshqalar). Kasbi tumani bodomzorlari bilan (Maymanoq) mashhur. Viloyatda 1286 ming bosh qoramol, 3958 ming bosh qo'y va ehkilar bor (bu borada ham Qashqadaryo oldinda). Mintaqaagrosanoat majmuida 219 ming tirik vaznda go'sht, 829 ming tonna sut, 280 mln donna tuxum, 6,4 ming tona jun (respublikaning 1/5 qismi),2,9 ming tonna pilla, katta miqdorda qorako'l terisi olinadi (2013-yil). Taqqoslash uchun bazi m'lumotlar (2000 yilda): umumiy ekin maydoni 461 ming ga yoki respublikaga nisbatan 12,2%, g'alla maydoni 202 ming ga (respublikada birinchi o'rinda), paxta maydoni 150 ming ga, yem-xashak maydoni 55 mingga, yirik shoxli qoramollar soni 580 ming bosh, qo'y va ehkilar 1,9 mln, bosh. Qorako'l terisi 110 ming dona, pilla 1,8-1,9mln. tonna tayyorlangan. Bundan 13 yil muqaddam jami ekin maydoning 45%g'alla, 32% paxta, 12% yem-xashak, ikki foizi sabzavotchilik bilan band bo'lgan. Qishloq xo'jalik geografiyasida Koson (9,1%) Chiroqchi (10,7%) tumanlari yetakchi, Dexqonobod va Muborak tumanlari orqada. Aholi jon boshiga hisoblaganda, yuqori ko'rsatkichlar Nishon, Kasbi tumanlarida, eng pastlari esa Shaxrisabz va Dexqonobod tumanlarida qayd etilgan. Qashqadaryoda jami 8025 ta fermer xo'jaliklari mavjud, ularga 744 ming ga yer biriktirilgan, 105 ming kishi ishlaydi. Yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibida fermer xo'jaliklarning xissasi o'rtacha 38,0% (respublikamiz miqyosida ancha yuqori). Bu ko'rsatkich Dexqonobodda juda past (3,1%), Nishon, Mirishkor tumanlarida esa u eng baland955-58%). Hududiy farqlar asosan agrar sohaning ixtissoslashuviga bog'liq. Odatda dexqonchilik, xususan, paxtachilikda fermer xo'jaliklari yetakchilik qilishadi.

(10-jadval)

Qashqadaryo viloyatida aholi jon boshiga istemol mollari ishlab chiqarish va xizmatlar indikatorlari. (2013-yil).

t/r	Tumanlar	HIM	Chakana savdo aylanmasi	Pullik xizmatlar
1	Dexqonobod	0,115	0,645	1,093
2	Kasbi	0,113	0,724	0,860
3	Kitob	0,416	1,245	0,884
4	Koson	1,446	0,939	0,792
5	Mirishkor	1,441	0,400	1,180
6	Muborak	0,280	0,485	1,977
7	Nishon	0,178	1,284	1,182
8	Chiroqchi	0,346	0,562	0,578
9	Shahrisabz	1,968	0,760	0,732
10	Yakkabog'	0,499	0,792	0,839
11	Qamashi	0,271	0,946	0,836
12	Qarshi	0,222	0,373	0,928
13	G'uzor	0,267	0,751	1,089
	Viloyat bo'yicha	1,000	1,000	1,000


Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzulgan.

Yer maydonlari va ularda ishlaydigan xodimlar soni ham bir xil emas. Masalan, Muborak tumanida 1ta fermer xo'jaligiga 171,5 ga yer va 13,5 kishidan ishchi, xodimlar to'g'ri keladi. (viloyatda o'rtacha 92,8 ga va 13,1 kishi). Kitob tumanida bu ko'rsatkichlar, mos ravishda, 43,9 va 12,8. Mirishkor tumanida-118,1 va 13,2. Intensiv sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda fermer xo'jaliklarning yer maydoni kam, ishlovchilar soni ko'p bo'ladi. Jumladan, Kasbi tumanida har bir fermer xo'jaligiga 6,3 gektar yer birlashtirilgan bo'lib, ularda o'rtacha 13,9 kishi ishlaydi, voxolanki, Dehqonobodda bu ko'rsatkichlar 111,2ga va 3,8 kishini tashkil qiladi. Shu o'rinda e'tiborga olish zarurki, mamalakatimizda olib borilayotgan fermer xo'jaliklarini optimallashtirish siyosatini amalga oshirish natijasida ularning soni keskin qisqardi, birlashtirilgan yer maydonlari esa keskin ko'paydi.

Shahrisabz shahrida tashkil etilayotgan «Shahrisabz» logistika markazi ushbu maqsadlarga xizmat qiladi. Ilgarigi pillachilik fabrikasi o'rnida ish boshlaydigan logistika markazi meva-sabzavotlarni yetishtirish, tayyorlash, qabul qilish, saralash, qayta ishlash, jahon talablariga mos laboratoriyalarda tekshirish, qadoqlash hamda ho'l, muzlatilgan va quritilgan holda eksport qilish bilan shug'ullanadi. Chiroqchi tumanida yiliga 8 ming tonna salat barglari, brokkoli, rangli karam va boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari, meva-sabzavot yetishtirish, saqlash va qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan «Big agro eksport» ma'suliyati cheklangan jamiyati barpo etilmoqda. 194 gektar maydondan iborat qiymati 14 million dollar bo'lgan ushbu korxonada 2 gektarda ko'chat yetishtirishga ixtisoslashgan issiqxona, 4000 tonna sig'imli sovutkich qurilishi ko'zda tutilmoqda. Mazkur loyiha amalga oshirilishi natijasida yiliga 6,8 million dollarlik mahsulotlar eksport qilinib, tumanda 90 doimiy, 500 mavsumiy ish o'rni yaratiladi. Yakkabog', Kitob va Shahrisabz tumanlarida 2017–2019 yillarda jami 5 ming gektarda yangi tokzorlar barpo etish mo'ljallanmoqda. Yakkabog' tumanida yiliga 4 ming tonna uzumni qayta ishlash loyihasi amalga oshiriladi. Joriy yildan boshlab Qashqadaryo viloyatining tog' va tog' oldi hududlarida za'faron plantatsiyalari tashkil etishga kirishiladi. Ushbu o'simlik tibbiyot va oziq-ovqat sanoatida keng ishlatiladi. Qarshi shahrida mutasaddi rahbarlar va viloyat faollari

ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Unda viloyat iqtisodiyotini yangi bosqichga ko'tarish, infratuzilmalarni rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, aholini ish bilan ta'minlash va turmush darajasini yanada oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Hududiy ixtisoslashuv jihatidan qaralganda, Yuqori zonada yoki Shahrisabz guruh tumanlarida paxtachilik, bog'dorchilik va g'allachilik, Quyi zonada, yani qarshi dashtida paxtachilik rivojlangan. Chorvachilik, xususan, qo'y va echkilarni boqish cho'l va hududlarda ko'proq tarqalgan. Viloyat markazi hamda Shahrisabz atrofida shahar atrofi qishloq xo'jaligi, sabzavot va kartoshka, ko'katlar yetishtirish bilan shug'ullanishadi. Qishloq xo'jaligida mo'l hosil yetishtirilmoqda, tarkibiy o'zgartirishlar davom ettirilmoqda. So'nggi besh yilda 3 ming 200 gektar paxta maydoni qisqartirilib, kartoshka, meva-sabzavot va poliz ekinlari yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Oxirgi uch yilda fermer xo'jaliklarining 22 foizdan ziyodi ko'p tarmoqli xo'jalikka aylantirilgan.

AVJALIGI EKINLARI EKIN MAYDONLARINING TAQSIMLANISHI




DINAMIKASI
(barcha xo'jalik toifalari bo'yicha, mlrd. so'm)





SHARTLI BELGILAR

- QISHLOQ XO'JALIGINING IXTISSIQLASHUVI**
- Shahar atrofi xo'jaligi: sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va sut-go'shit chorvachiligi
 - Paxtachilik, donchilik, bog'dorchilik, ipakchilik, asalarchilik, sut-go'shit chorvachiligi
 - Sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, mevachilik, asalarchilik, sut-go'shit chorvachiligi
 - Lalini dehqonchilik zonalari
 - Don ekini, ba'zi yerlarda texnik ekinlari va sut-go'shit chorvachiligi
 - Cho'l-yaylov zonasi
 - Cho'l-yaylov chorvachiligi (asosan qorako'lchilik)
 - To'g'-yaylov zonasi
 - To'g'-yaylov chorvachiligi (go'shit-jun go'yichiligi va go'shit-sut chorvachiligi), daryo vodiylarida bog'lar va uzumzorlar
 - Qo'riqlanadigan yerlar
- ENG KO'P TARQALGAN RAYONLAR**
- ingichka to'liqi
 - g'o'za
 - g'o'za
 - bog'lar
 - sabzavot va kartoshka
 - poliz ekinlari
 - bug'doy
 - arpa
 - makkajo'xori
 - makka
 - bug'doy
 - arpa

- RAYONLAR**
- don-dukaklilar
 - yong'oqzorlar
 - beda
 - o'rmonlar
 - sigirlarni urchitish
 - qorako'l qo'ylarini urchitish
 - hisor qo'ylarini urchitish
 - echkilarni urchitish
 - yilqichilik
 - cho'chqachilik
 - parrandachilik
 - asalarchilik
 - ipakchilik



Masshtab 1:1 140 000



Go'sht (tirik vaznda)	Sut	Tuxum	Jun (tabiiy vaznda)	Qorako'l terisi
205,8 (ming t)	772,0 (ming t)	248,2 (mhn. dona)	6,339 (ming t)	191,836 (ming dona)

SHARTLI BELGILAR

GO'SHT YETIŞTIRIŞ HAJMI (tirik vaznda, ming t, 2012 y.)

20 dan ko'p 10 - 15
15 - 20 10 dan kam

MAHSULOT MOLLAR SONI (2012 y.)

Yirik sho'xi goramol
1 belgi - 50 ming bosh
1 belgi - 5 ming bosh

Siqinlar
1 belgi - 15 ming bosh
1 belgi - 2 ming bosh

Go'ylar va echkilar
1 belgi - 100 ming bosh
1 belgi - 10 ming bosh

Eslatma: 1. Xaritada ko'rsatkichlar tumanlar bo'yicha berilgan, ma'lumotlar G'orsh' tumaniga kiritilgan.

Ijtimoiy sohalarning ustuvor yo'nalishlari.

Ustuvor rivojlanishi o'ziga hos demografik vaziyatga ega bo'lgan qashqadaryo viloyati uchun ham dolzarbdir. Bu sohada eng avallo ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo va turli xil xizmatlar asosiy ahamiyat kasb etadi. 2013-yil chakana savdo aylanmasi oldingi yilga nisbatan 115,6 foizga ko'paygan, bu raqam esa aholi soni ko'payishiga qarab qariyb 7 marta yuqoridir. Hayot o'zgarishlari bilan birga insonlarning talab va ehtiyojlari, orzu-niyatlari, kerak bo'lsa, tashvish-muammolari ham o'sib boradi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, viloyatda aholining real daromadlari 2000 yilga nisbatan jon boshiga 9,7 barobar ko'paygan, shu davrda o'rtacha oylik ish haqi 23 marta, pensiya va ijtimoiy nafaqalar 12,7 marta ortgan. Aholi jon boshiga tog'ri keladigan chakana savdo aylanmasi, Qarshi shahrini hisobga olmaganda, Kitob tumanida eng yuqori, eng pasti esa Kasbi tumanida kuzatiladi. Salohiyat nuqtai-nazardan esa Shahrisabz, Kitob va Qarshi qishloq tumanlarida ajralib turadi. Jami viloyat chakana savdo aylanmasining 41,6 foizi birgina Qarshi shahar zimmasiga tushadi (6-jadval). Bu uning yirik rayon hosil qiluvchi yoki rayonga xizmat qiluvchi vazifasini ham kuzatib turubdi. (4- jadvalda) HIMva xizmatlar bo'yicha indikatorlar keltirilgan. Viloyat aholisining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi o'rtacha 85,0 %, tabiiy gaz bilan esa- 67,2. Ajablanarlisi shundaki, eng katta tabiiy gaz ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lgan bunday mintaqada mazkur ko'rsatkich uncha yuqori emas. Ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi Shahrisabz, Muborak Kitob tumanlarida u ancha yuqori (90-95%). Dehqonobod tumanida esa u ancha zaifroq (51,8%), Nishonda 79,0% bo'lgan bu tarzda, G'uzorda-41,7%, Dehqonobodda-44,2%. Shuningdek, Yakkabog' va Qamashi tumanlari ham vaziyatda uncha yaxshi emas. Uy- joy ta'minoti viloyat bo'yicha har bir kishiga 13,2 kv. metr to'g'ri kelgan holda, bu ko'rsatkich Kitob va Muborak tumanlarida yuqori (19-20 kv.m.), Koson tumanida esa, u past (8,0 m²). Har o'n ming kishiga nisbatan kasalxona o'rinlari, qarshi shahrini hisobga olmaganda, qarshi tumanidagi 54,6 tagacha farqlanadi. (01.01.2014-yil). G'uzor, Qamashi, Chiroqchi tumanlarida ham bu ko'rsatkich past. Qarshi tumanidagi holatni uning geografik o'rni bilan baholash mumkin.

Tibbiyot sohasida, har 10 ming kishiga to'g'ri keladigan bemor o'rinlar soni 38,3 ta. Vrachlar har 10 ming kishiga 18,3, o'rta meditsina xodimlari 100,7 kishi (bu raqamlarni boshqa viloyatlar bilan solishtirish mumkin). Qishloq vrachlik punktlari 264 ta, o'rtacha to'rtta qishloq aholi punkitiga bitta QVP to'g'ri keladi. Yuqoridagi keltirilgan statistik raqamlar ba'zi ijtimoiy sohalarning qishloq tumanlari miqyosidagi real holatini aks ettiradi. O'z navbatida, bu ko'rsatkichlar viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarining hududiy jihatlarini yaqqol nomoyon qiladi. Qashqadaryo viloyatida o'rta ta'lim maktablari 1118 ta, kasb-hunar kollejlari 136 ta, 7 ta akademik litsey va ikkita oliy o'quv yurti bor. Qarshi davlat universitetida turli yo'nalishlar bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlanadi. Bu nafaqat shahar va qishloqlar qiyofasini, balki odamlarimizning dunyoqarashi, hayotga munosabatini tubdan o'zgartirishga xizmat qilmoqda, ularning ertangi kunga ishonchini kuchaytirmoqda. Ayni paytda viloyatda ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish uchun byudjetdan ajratilgan mablag'larni o'zlashtirishda ba'zan oqsoqlik holatlariga yo'l qo'yilayapti. Mintaqada katta rekriatsiya va turistik resurslarning mavjudligi ushbu sohalar rivojlanishining muhim omili bo'lib hisoblanadi. 2750 yillik tarixga ega bo'lgan Shahrisabz, 2700 yilga to'lgan Qarshi shahrining xalqaro va mahalliy turizmni rivojlantirishda ahamiyati katta. Kitob kenglik stansiyasi, Xazrati Bashir, Sulton Mirxaydar, Isoq-Ota kabi ziyoratgoh va qadamjolar ham ilmiy vamilliy turizmni rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Viloyatning bu va boshqa joylarda turistik industuriya va turistik infiraturuzulmani zamonaviy shakillantirishga e'tibor qaratilmoqda. Viloyatda 948 ta arxeologik, 175 ta arxitektura yodgorligi, 37 ta ziyoratgoh bor. Kitob tumanida er kurrasining bir necha yuz million yillik evolyusiyasini o'zida aks ettirgan yirik geologik qo'riqxonalar joylashgan. Chiroqchi, Shahrisabz tumanlarida tosh asriga oid qoya suratlari topilgan. Olimlarning fikriga ko'ra, Chiroqchi tumanidagi Siypantoshda aniqlangan toshdagi jadval mezolit davriga mansubbo'lib, dunyodagi eng qadimgi taqvimlardan biri hisoblanadi... Viloyatda ana shu tarixiy yodgorliklari, rang-barang tabiati - ulkan tog'lari-yu jannatmonand bog'lari, dala-dashtlari, qir-adirlari,

turfa xil hayvonot va nabotot olami, moziy izlari saqlangan obidalari bilan turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun qulay hudud hisoblanadi.

SOG'LIQNI SAQLASH

SHARTLI BELGILAR -DAVOLASH VA AMBULATORIYA- -POLIKLINIKA MUASSASALARINING SONI (2012 y.)

- Davolash muassasalari soni
 - Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni
- Eslatma. Xaritadaagi ko'rsatkichlar tumanlar bo'yicha berilgan.

SHIFOKORLARNING TOIFALARI BO'YICHA SONI (foiz hisobida, 2012 y.)




2656 kishi - viloyat bo'yicha shifokorlar soni

O'RTA TIBBIYOT XODIMLARINING TOIFALARI BO'YICHA SONI (foiz hisobida, 2012 y.)




6429 kishi - Viloyat bo'yicha o'rtta tibbiyot xodimlarining soni



SHIFOKORLAR VA O'RTA TIBBIYOT XODIMLARINING UMUMIY SONI (foiz hisobida, 2012 y.)

O'RTA TIBBIYOT XODIMLARI



- G'uzor
- Dehqonobod
- G'amashi
- Qarshi
- Koson
- Mirishkor
- Muborak
- Nishon
- Chiroqchi
- Shahrisabz

Transport va tashqi iqtisodiy aloqalari.

Viloyatda transport tizimining turli xillari mavjud. Ammo yuk tashishda avtomobil transporti oldingi o'rinda turadi. 2013- yilda umumiy 41,1 mln. tonna tashikgan yukning barchasi avtomobil transportiga to'g'ri keladi. Shu yilda jami 457,3 mln. yo'lovchi tashilgan, uning ham deyarli barchasi avtomobil transportida amalga oshirilgan. Qashqadaryo neft va gaz konlaridan mamlakatimizning turli rayonlariga hamda qo'shni davlatlarga quvur transporti tarqalgan; Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, ko'pkina yirik issiqlik elektr stansiyalariga ayni shu yerdan yoqilg'i yetkazib beriladi. Shuningdek, yaqinda qurilgan Toshg'uzor- Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'llining ahamiyati ham katta. Qarshi shahrida yirik aeroport bor, u viloyat aholisining tashqi aloqalariga xizmat qiladi. Yo'llarni iqtisodiyotning qon tomiriga qiyoslashadi. Chunki ular xalq xo'jaligini rivojlantirishda, o'zaro hamkorlik va sherikchilik munosabatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yo'llar ham bir necha turga bo'linadiki, ular orasida temir yo'l alohida ahamiyatga ega. Chunki u jahonda arzonligi jihatidai suv yo'lidan keyingi o'rinda turadi va temir yo'llar tizimini ravojlantirish mamlakatimiz uchun katta foyda keltiradi. Shu bois ham istiqlolning dastlabki yillaridanoq Yurtboshimiz rahnamoligida, tizimni jahon andozalari darajasida modernizatsiyalash va yangilash ishlari izchil amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2010 yil 21 dekabrda "2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida" gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichra olib chiqdi. Mazkur qaror asosida hozirda Maroqand - Qarshi - Termiz temir yo'l uchastkasini elektrlashtirish loyihasi jadallik bilan hayotga tatbiq etilmoqda. Unga nafaqat "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik temir yo'l kompaniyasining o'z mablag'lari, balki davlat kafolatidagi chet el investitsiyalari ham jalb qilingan. Ya'ni, 140,8 kilometrlik Maroqand - Qarshi hamda 325 kilometrlik Qarshi - Termiz uchastkalarini elektrlashtirish uchun xalqaro moliya tashkilotlarining imtiyozli kredit mablag'lari yo'naltirilgan. Bu Maroqand – Qarshi uchastkasini elektrlashtirish loyihasi uchun Osiyo taraqqiyot banki bilan 100 million AQSh dollarilik bitim imzolangan. Qarshi-Tertdiz

uchastkasini elektrlashtirish uchun esa Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligining 220 million AQSh dollari miqdoridagi imtiyozli kreditidan foydalanilgan. Iqtisodiyot vazirligi va Davlat statistika qo'mitasining "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilning birinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to'g'risida"gi axborotida qayd etilishicha, Maroqand-Qarshi va Qarshi-Termiz temir yo'l uchastkalarini elektrlashtirish loyihalarini amalga oshirish bo'yicha yanvar-iyun oylarida tegishli ravishda 20,3 million va 12,1 million dollar o'zlashtirilgan. Loyiha doirasida baland tog'larni zabt etib o'tyvchi, Qashqadaryo va Surxondaryoni bog'lab turadigan 223 kilometr uzunlikdagi yangi Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'l liniyasi ham elektrlashtirildi. Ayni paytda Qarshi lokomotiv deposida elektrovozlarni ta'mirlash sexi bunyod etilgan. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda, O'zbekiston temir yo'llarining 11,6 foiz qismi viloyat hududidan o'tadi. Kompaniyaning Qarshi temir yo'l uzeli va unga qarashli korxonalar va tashkilotlar Maroqand - Qarshi - Termiz uchastkasini elektrlashtirish loyahasining Maroqand - Qarshi va Qarshi - Oqrabot qismida ish olib borilgan. Uzeldan ma'lum qilishlaricha, ayni paytda 140,8 kilometrlik Maroqand-Qarshi uchastkasida temir-beton ustynlar, simlarni ushlab turuvchi moslamalar to'liq o'rnatib bo'lingan. Ayritom stansiyasigacha bo'lgan masofaga osma tross tortilgan. Barcha bekatlarda qurilish ishlari yakuniga yetkazilgan. Ayni paytda tashqi elektr liniyalari tortilgan. Hozirgacha 38,8 kilometr uzunlikdagi temir yo'l yuqori tezlikka moslashtirildi. Qarshi-Oqrabot yo'nalishida ham ishlar izchil amalga oshirilgan. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, Maroqand-Qarshi-Termiz uchastkasining to'liq elektrlashtirilishi poezdlardan foydalanish harajatlarini 23 foizga qisqartiradi. Yiliga 16 ming tonna dizel yonilqisi tejaladi, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi oshadi, yuk tashish vaqti 1,2 soatga, yo'lovchilarning manzilga yetish vaqti 40 daqiqaga qisqaradi. Eng muhimi, temir yo'lning poezdlarni o'tkazish quvvati 35 foizga oshadi. Qo'shimcha ishchi o'rinlari yaratish imkoniyati tug'iladi. Bir so'z bilan aytganda, mazkur loyiha iqtisodiyotimizning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida harakat xavfsizligiga, ekologik muhit tozaligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tashqi savdo aylanmasi 2013- yilda 734,0

mln AQSH dollarini tashkil etib, shundan eksport 308,4 mln va import 425,6 mln dollorga teng bo'lgan. Eksport tarkibida yoqilg'i (asosan tabiiy gaz) va paxta tolasi ustunlik qiladi. Bunday eksport tarkibi respublikamizning ko'pkina boshqa viloyatlarida kuzatilmaydi. Bu yerdan kimyoviy mahsulotlar, jumladan, polietilen ham eksport qilinadi. Import tarkibida mashina va uskunalar (90,0%) yetakchilik qiladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy qismi "Uzoq xorij" mamlakatlariga to'g'ri keladi. Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalar soni 51 ta bo'lib (shu jumladan Qarshi Shahrida 22 ta), ular 2013- yilda 63,5 mln AQSH dollari miqdoridagi mahsulotlarni eksport qilgan. Biroq, 2010-yilda viloyatning tashqi iqtisodiy aloqalarida keskin o'zgarishlar yuz berdi: tashqi savdo aylanmasi 2009-yilga nisbatan atiga 17,6 foizni, eksport-16,3% va import 24,0 foizni tashkil qilgan. Ushbu "anomal" vaziyat, eng avallo yoqilg'i sanoati tufayli sodir bo'lgan. Masalan paxta tolasining eksporti 134,8 foizga o'sgan holda, energiya uzatuvchilar 2009-yilda bor yo'-g'i 1,2 foizga teng bo'ldi. Ayni vaqtda, energiyani import qilish 43,3 martaga oshdi. O'ylaymizki, bunday kutulmagan holat respublikamiz milliy iqtisodiyotida muhim o'rin tutgan Qashqadaryo viloyati uchun muvvafaqiyat, o'tkinchidir. 2012 yilda mahsulotlar eksporti hajmi 2010 yilga nisbatan qariyb 30 foizga ko'paydi va 2010-2013 yillar mobaynida eksportning o'rtacha xajmi 362,8 million dollardan ko'proqni tashkil etdi. Bu 2000 yilga nisbatan 5,0 barobar ziyoddir. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini 2010-2013 yillar davomida 101,6 million dollardan oshdi. Eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 80 foizni tashkil etdi, holbuki, 2000 yilda bu ko'rsatkich qariyb 40 foizni tashkil etgan edi. O'tgan davrlarda eksport tuzilmasining tarkibi ham ancha o'zgardi. Bugungi kunda eksportda kimyoviy mahsulotlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari asosiy o'rin tutmoqda. Viloyat tashqi savdo geografiyasi Osiyo va Sharqiy Osiyo qit'asi bozorlari bilan savdo aylanmasining o'sishi hisobiga o'zgarmoqda. Hisobot yiliga qadar mahsulotlar eksportining asosiy qismi Yevropa va Amerika davlatlari (CHexiya, Kipr, Ukraina, Frantsiya, Rossiya, Latviya, Turkiya, Ozarbayjon, Gollandiya, Isroil, AQSH, Kanada kabi)ga to'g'ri kelgan bo'lsa, hisobot yilida Osiyo va Sharqiy Osiyo davlatlari (Xitoy, Eron, Koreya, Gong-Kong, Tayvan,

Yaponiya, Singapur, Bangladesh, Pokiston, Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston kabi) bilan tashqi savdo aloqalari o'rnatilgan. Kimyoviy mahsulotlar eksporti 27,0 barobar, energetika mahsulotlari eksporti 9,0 barobar, xizmatlar eksporti 13,0 barobar ortgan. 2013 yilda dunyoning 216 ta davlatlari bilan viloyat korxonalari o'rtasida tashqi savdo faoliyati amalga oshirildi. 2014 yilgi xududiy investitsiya doirasida jami 45 ta loyihaga 52,6 mln. dollarlik investitsiyalar jalb etilishi ko'zda tutilgan bo'lib, amalda 55,8 mln.dollar miqdorida investitsiyalar jalb etilib, belgilangan prognoz ko'rsatkich 106,0 foizga ijrosi ta'minlandi. Jalb etilgan investitsiyalarning 13,5 mln.dollari tadbirkorlarning o'z mablag'lari hisobiga, 35,2 mln.dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga, 7,2 mln.dollari tijorat banklarining kreditlari hisobidan amalga oshirildi. Buning natijasida 21,8 mlrd.so'mdan ortiq mahsulotlar ishlab chiqarildi va 5,5 mln.dollardan ortiq eksport amalga oshirilib, 605 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Qo'shma korxonalarining faoliyati. 2015 yil 1 yanvar holatiga viloyatda jami 55 ta qo'shma korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan 44 tasi faoliyat yuritmoqda. O'tgan davrda ushbu qo'shma korxonalar tomonidan 107,5 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2013 yilga (106,7 mlrd.so'm) nisbatan 15,0 mlrd.so'mga ko'p (100,7 %) mahsulot ishlab chiqarildi. SHuningdek, qo'shma korxonalarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 9,9 foizni, mahsulot eksportidagi ulushi esa 22,2 foizni tashkil etadi. SHuningdek, o'tgan davrda ushbu sohada olib borilgan ishlar natijasida viloyatda o'tgan davr mobaynida 3 ta qo'shma korxonalar tashkil etildi. Bular, Nishon tumanida "Barakat orenburg" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi, Qarshi shahrida MCHJ shaklidagi "Ekspress avtomatika" xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonasi va Qarshi shahrida MCHJ shaklidagi "Saturn plast" O'zbekiston-Xitoy korxonalaridir. Viloyatni istiqbolini rivojlantirish maqsadida 2014 yildan boshlab chet ellik xamkorlar bilan birgalikda ishlab chiqarish ob'ektlari jumladan, Sho'rtan gaz kimyo majmuasida Malayziya davlatining "Petronas" va YuAR "Sasol" kompaniyalari bilan birgalikda metan tozalash bazasida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" unitar shu'ba korxonasi

qoshida Singapur davlatining “Indorama Group” kompaniyasi bilan birgalikda gaz kimyo majmuasi qurilishi rejalashtirilgan.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining hududiy tarkibi va asosiy muammolari.

Qashqadaryo viloyatida, eng avallo ikkita shakillangan asosiy ichki iqtisodiy rayon ajratiladi. Quyi mintaqa yoki Qarshi mintaqasi paxta va g'alla chorvachilikka, neft-gaz, tog'-kon hamda elektr energetikaga ixtisoslashgan. Uning tarkibiga Qarshi shahri, Qarshi, Nishon, Muborak, Koson, G'uzor, Kasbi va Mirishkor tumanlari kiradi.

Yuqori yoki Shahrisabz mintaqasida ko'proq agrosanoat majmuassi rivojlangan. U Shahrisabz, Yakkabog' va Kitob tumanlarini birlashtiradi. Qashqadaryo geografi M. Yangiboyev bu rayonlardan tashqari yana shimoliy (Chiroqchi tumani) va janubiy (Dehqonobodva Qamashi tumanlari) rayonlarini ham ajratgan. Albatta bu yangi rayonlarda hududiy ishlab chiqarish majmuassi endi shakillanib bormoqda. Balkim, Dehqonobod, G'uzor Qamashi va Chiroqchi tumanlarini oraliq yoki O'rta Qashqadaryo iqtisodiy rayon sifatida ajratish haqiqatga yaqin bo'lar.

Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ichki tofovutlar qishloq tumanlari miqyosida yanada aniqroq ko'zga tashlanadi. (7-jadval). Jadvaldan ko'rinib turibdiki, asosiy ishlab chiqarish sohalari, yani sanoat va qishloq xo'jaligi bo'yicha Muborak va G'uzor tumanlari ajralib turadi. Ijtimoiy sohalar Kitob, Muborak hamda Nishon tumanlarida nisbatan yaxshiroq. Hozircha eng sust rivojlangan qishloq tumanlari- Dehqonobod va Chiroqchi. Yaqin kelajakda ishlab chiqarishni to'g'ri hududiy tashkil etilishini takomillashtirish, mehnat resurslari, rekreasiya va turistik imkoniyatlardan foydalanish, to'qimachilik va qurulish sanoati bazasini mustahkamlash, transport va ijtimoiy infiraturuzulmalarni rivojlantirish kabi masalalar dolzarb hisoblanadi. Qishloq sanoati va ijtimoiy holatini yaxshilash, aholini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash, geoekologik vaziyatni sog'lomlashtirish va mintaqaviy muammolar sirasiga kiradi. Tollimarjon IES va Toshg'uzor- Boysun- Qumqo'rg'on temir yo'lining qurulishi mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtiruvchi muhim omil bo'ladi. Ular viloyat iqtisodiy geografiyasiga katta o'zgarishlar kiritadi. Shu bilan birga, kelajakda yangi

temir yo'l va avtomobil yo'llarini qurish bunday katta hududga ega bo'lgan mintaqa uchun zarurdir. Jumladan, Yakkabog' va Ayritom bekatlarini birlashtiruvchi temir yo'l qurilsa, viloyatning ikkinchi shahri – Shahrisabz Respublika markaziy rayonlari bilan qisqaroq masofada bog'lanish imkoniyatiga ega bo'ladi. va transport harajati kamayadi, Qarshi stansiyasining “yuki” biroz yengillashdi. Qolaversa bu, yo'l viloyatning ichki hududlarini rivojlanishiga yangi turtki beradi., natijada, Qashqadaryoning asosiy iqtisodiy o'zagi (Qovurg'asi) Qarshi-G'uzor-Qamashi-Yakkabog' (Shahrisabz)-Chiroqchi- Ayritom xalqasi yoki to'rtburchagi hosil bo'ladi. Ayni vaqtda, G'uzorning transport tuguni sifatidagi ahamiyati kuchaydi, Dehqonobod tumaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi kuchayadi va u Qashqadaryoni Surxondaryo viloyati bilan bog'lashga hizmat qiladi, shu asosda yagona Janubiy iqtisodiy rayon shakillanib boradi. Shahrisabz tugunining rivojlanishi dovoning ikki tomonida joylashgan Urgut va Kitob tumanlari iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish esa Qarshi- Buxoro- Samarqand uchburchagini, respublikamiz janubiy-g'arbiy qutbini yanada mustahkamlaydi. Demak, istiqbolda, G'uzor, Yakkabog', Ayritom, Qarashina, Chin va Kitob kabi o'sish nuqta va markazlari vujudga keladi, Qarshi va uning aglomeratsiyasi takomillashadi, aholi va ho'jalikni hududiy tashkil etishning xuddi shunday shakli Shahrisabz negizida ham paydo bo'ladi.

(11-jadval)

Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy indikatorlari.

(aholi jon boshiga, 2013-yil)

Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsuloti	HIM	Qishloq xo'jalik mahsuloti	Kapital qo'yilmalar	Pudrat ishlari	Chakana savdo	Pullik xizmat
Qarshi sh	1,860	2,279	0,083	1,205	3,043	4,548	3,010
Dehqonobod	0,132	0,125	0,835	1,706	0,581	0,634	0,743
Kasbi	0,179	0,092	2,059	0,262	0,561	0,302	0,377
Kitob	0,058	0,577	1,273	0,221	0,644	0,896	1,520
Koson	0,245	1,472	1,229	0,336	0,916	0,856	0,859
Mirishkor	0,262	0,344	0,958	4,719	0,704	0,536	0,674
Muborak	18,140	0,568	1,244	10,582	2,472	0,817	2,794
Nishon	0,254	0,166	2,726	1,305	0,797	0,767	0,767
Chiroqchi	0,051	0,298	0,905	0,138	0,306	0,357	0,388
Shahrisabz	0,190	1,965	0,618	0,317	0,698	0,731	0,589
Yakkabog'	0,100	0,509	1,024	0,324	0,636	0,764	0,605
Qamashi	0,136	0,343	1,073	0,169	0,403	0,714	0,883
QarsJhi	0,152	0,278	1,072	0,402	1,053	0,418	0,905
G'uzor	3,709	0,161	1,021	1,998	2,094	0,645	0,634
Viloyat	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,0000

Jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi mavzusida viloyatning respublika mehnat taqsimotida yetakchi mavqeylardan birida turishi yalpi ichki mahsulot ulushiga ko'ra uchunchi o'rinda, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha beshinchi o'rinda, qishloq xo'jaligi xomashyosi ishlab chiqarishida oltinchi o'rinda turadi. Bundan tashqari Qashqadaryo viloyati o'zining demografik sig'imi yoki salohiyati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi mintaqalari bo'yicha Samarqand, Farg'ona viloyatlaridan keyingi uchunchi pog'onani egallaydi.

Shuningdek Qashqadaryo viloyati respublikaning janubida joylashgan, u shimoli-g'arbda Buxoro, shimolda Samarqand va qisqaroq masofada Navoiy viloyatlari, janub va janubi-sharqda Surxondaryo viloyati bilan chegaradosh. Geosiyosiy mavqeyi ham o'ziga xos- viloyatning hududi g'arb va janubi-g'arbda Turkmaniston, sharqda Tojikiston Respublikasi bilan tutashgan.

Qashqadaryo viloyatining yer usti tuzulishiga ko'ra ancha murakkab, relyefning bunday turli-tumanligi o'ziga xos tabiiy boyliklarga ega ekanligini asoslab beradi, va ichki hududiy mehnat taqsimoti iqlim sharoitlarining shakillanishiga sabab bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan agrar-industriyal yo'nalishga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Vaholanki viloyatning hozirgi kundagi, sanoat tarmoqlarining jadal rivojlanishi kelajakda viloyatni industriyal-agrar xususiyatini olishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Qashqadaryo viloyatida agrar soha ham yaxshi rivojlangan, ayniqsa mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining kengayib tarmoqlashib borishi, hudud iqtisodiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Shu bilan birgalikda ijtimoiy sohalarning ustuvor rivojlanishi o'ziga xos demografik vaziyatga ega bo'lgan, Qashqadaryo viloyati uchun o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu sohada eng avvallo ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo va turli xizmatlar asosiy xizmatlar kasb etadi. Qashqadaryo viloyatida transport tizimining turli xillari mavjud, lekin yuk tashishda avtomobil transporti asosiy o'rinni egallaydi. Bundan tashqari Qashqadaryo neft va gaz konlaridan mamlakatimizning turli hududlariga hamda qo'shni davlatlarga quvur transporti keng tarqalgan. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, ko'pkina yirik issiqlik elektro-stansiyalariga ayni shu yerdan yoqilg'i yetkazib beriladi. Shuningdek yaqinda qurilgan "Toshg'uzor-Boysun- Qumqo'rg'on" temir yo'lining ahamiyati katta. Qarshi shahrida yirik aeroport mavjud bo'lib, u viloyat aholisining tashqi iqtisodiy aloqalariga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng islohatlar qashqadaryo viloyatining ham chetlab o'tayotganligi yo'qligi sababli viloyatda iqtisodiy islohatlar keng miqyosda amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar

1. Sh Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davvom etirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-kitob Toshkent- "O'zbekiston"-2017-yil.
2. Sh Mirziyoyev. Erkin va Farovon Demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanarli marosimga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq". Toshkent- "O'zbekiston"-2017-yil.
3. Karimov I. O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent:” O'zbekiston”,1997-yil.
4. Karimov I. Asosiy vazifamiz- Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir- Toshkent: “O'zbekiston, 2010-yil.
5. Karimov I. O'zbekiston Mustaqilikka erishish ostonasida- Toshkent “O'zbekiston” 2011-yil.
6. A. Soliev O'zbekiston Geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). Toshkent “Universitet” 2014-yil.
7. Asanov g. Nabihonov M. Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi- T: O'qituvchi”, 1994-yil.
8. Ata-Mirzayev O., To'xliyev N., Uzbekistan природа, население, экономика - Toshkent.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2009-yil.
9. Ahmedov E., Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma'lumotnoma, - Toshkent: “O'zbekiston”,2006-yil.
10. Воронин В, В, Шарьгин М, Д. Экономическая, социальная и политическая география. Учебное пособие. - Самара, 2006
11. Глобальная социально-экономическая география. Под.ред. Н.А. Слуга - Москва-Смолеьнск, 2011.
12. Гранберг А.Г. Основъ региональной экономики. М -2000.
13. Доманская Р. Экономическая география: региональная аспект. Пер. пол, -М “Н2010. “новый хронограф “. 2010.

14. Мироненко Н. С. Введение в географию мирового хозяйства. Международное разделение труда –М “аспект пресс” 2006.
15. Максаковский В.П. Общая экономическая и социальная География Курс лекций часть 1 - М : ”Владос”, 2009.
16. Nabiyev E. Qayumov A. O’zbekistonning iqtisodiy salohiyati - T. “Universitet”, 2009.
17. Новый взгляд на экономическую географию. Доклад в мировом развитии. Обзор 2009. – Вашингтон, Всемирный банк, 2008.
18. Ro’ziyev A. Abirqulov Q. O’zbekiston iqtisodiy geografiyasi - Toshkent.: “Sharq” NMAK, 2001.
19. Саушкин Ю.Г. Географическое мышление - Смоленск: Ойкумена, 2011.
20. Soliev A.S. Ahmedov E. Mahmadiyev R.Y. va Boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. O’quv qo’llanma. -Toshkent.: “Universitet”,2003.
21. Soliev A. Nazarov M. O’zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). - Toshkent.: “Fan va texnologiya”.2009.
22. Soliev A. Nazarov M. Qurbonov Sh. O’zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi -Toshkent.: “MUMTOZ SO’Z”. 2010.
23. Soliev A. Iqtisodiy geografiya: Nazariya va metodika va amaliyot - Toshkent.: “Kamalak”, 2013.
24. Социально-экономическая география: понятия и термины. Словарь-Справочник. - Смоленск: “Ойкумена”. 2013.
25. Tojiyeva Z.N. O’zbekiston aholisi: o’sish va joylanishi (1989-2009-yillar). Monografiya - Toshkent.: Fan va texnologiya” .2010.
26. Экономическая, Социальная и политическая география: мир, регион, Страна. Под. Ред. И.А. Родиновой. -Москва. 2008.
27. To’xliyev N. O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. Toshkent.: O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2008.
28. O’zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010-yillardagi) asosiy tendensiya va ko’rsatkichlari

hamda 2011-2015-yillarga mo'ljallangan prognozlari - Toshkent.:
"O'zbekiston".2011.

29. Qurbonov Sh.B. Kichik hududlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi -
Toshkent.: "MUMTOS SO'Z" .2013.

30. Hasanov I.A. G'ulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi -Toshkent.:
"O'qituvchi".2007.

31. Internet saytlari.

32. Qashqadaryo.uz

33. Qashqadaryo stat.uz

34. Geografiya.uz

35. Arxiv.uz

